

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

2019 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

O'ZBEKISTON

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2019 Vol. 2

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Zaynobiddin Abdirashidov

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Baxtiyor Nazarov, Naim Karimov, Nizomiddin Mahmudov, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Nurboy Jabborov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Qosimboy Ma'murov, Nozliya Normurodova, Margarita Galiyeva, Dusmamat Kulmamatov, Abdi Mamatov.

Tahrir hay'ati

Frederik Bressand (Fransiya)	Shohid Taslim (Hindiston)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Homid Abbos Xon (Saudiya Arabistoni)	Vahit Turk (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Tolib Yildirim (Turkiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Xisao Komatsu (Yaponiya)	Mustafa Kachalin (Turkiya)
Dilnoza Duturayeva (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Eunkyoung Oh (Janubiy Koreya)	Gurer Gulsevin (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Sulton Normamatov (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Rustam Suleymanov (O'zbekiston)
Darya Jigulskaya (Rossiya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Timur Xo'jao'g'li (AQSH)	Ishtvan Zimoniy (Vengriya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarini qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalariga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

103 Yusuf Xos Hojib ko'chasi, Yakkasaroy tumani, Toshkent, O'zbekiston.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy editor in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Bakhtiyor Nazarov, Naim Karimov, Nizomiddin Mahmudov, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Nurboy Jabborov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Ulugbek Hamdamov, Murtazo Sayidumarov Kasimbay Mamurov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Margarita Galieva, Dusmamat Kulmamatov, Abdi Mamatov.

Editorial Committee

Frederique Bressand (France)	Shahid Tasleem (India)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Homid Abbas Khan (Saudi Arabia)	Vahit Turk (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Talib Yildirim (Turkey)
Akram Habibullaev (USA)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Hisao Komatsu (Japan)	Mustafa Kachalin (Turkey)
Dilnoza Duturaeva (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Eunkyung Oh (South Korea)	Gurer Gulsevin (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Sulton Normamatov (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Rustam Suleymanov (Uzbekistan)
Daria Zhigulskaya (Russia)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Timur Kocaoglu (USA)	Ishtvan Zimoni (Hungary)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Shuhrat Sirojiddinov

Navoiyning ota-bobolari haqida.....6

Aidaxon Bumatova

She'riy tarjimada poetik birliklarning saqlanishi.....20

Lingvistika

Delyaram Ashurova, Margarita Galieva

Lingvomadaniyatshunoslik: asosiy masalalar, tamoyillar va vazifalar.....42

Tarix. Manbashunoslik

G'aybulla Boboyorov

Qadimgi turkcha unvonli To'xoriston tangalari.....74

San'at

Oqilxon Ibrohimov

Alisher Navoiyning samo' falsafasi.....101

CONTENT

Literature. Translation studies

Shuhrat Sirojiddinov

On Navo'i's Ancestors.....6

Aidakhon Bumatova

Keeping Harmony of Poetical Units in the Translation of a Poem.....20

Linguistics

Delyaram Ashurova, Margarita Galieva

Cultural Linguistics: Main Issues, Trends and Tasks.....42

History. Source studies

Gaybulla Boboyorov

Coins of Ancient Tokharistan74

Art

Oqilkhon Ibrohimov

Samo Philosophy of Alisher Navo'i101

ADABIYOTSHUNOSLIK. TARJIMASHUNOSLIK
LITERATURE. TRANSLATION STUDIES

Shuhrat S. Sirojiddinov

(Toshkent, O'zbekiston)

shsirojiddinov@navoiy-uni.uz
shsirojiddinov1961@gmail.com

Navoiyning ota-bobolari haqida

Abstrakt

Alisher Navoiyning ota-bobolari haqida manbalarda to'liq tasavvur beradigan ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Shoirning o'zi mavzu taqozo etganda bir-ikki jumla gapirgan. Uning zamondoshlari asarlarida berilgan ma'lumotlar uzuq-yuluq bo'lib, ayrim hollarda, bir-biri bilan mantiqan bog'lanmaydi. Ushbu maqolada qo'lyozma manbalardagi ma'lumotlar qiyosiy tahlil etilib, ulug' shoir va davlat arbobining ota-bobolari, temuriylar bilan munosabatlari va tutgan mavqelari haqida dastlabki qarashlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Alisher, Bartold, temuriylar, Boyqaro, navoiyshunoslik, Sulton Husayn, Bobur, Xuroson, Hirot.

Muallif haqida: *Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Iqtibos uchun: Sirojiddinov, Sh. S. 2019. "Navoiyning ota-bobolari haqida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 6–19.

Alisher Navoiyning kelib chiqishi

Alisher Navoiy hijriy 844-yil ramazon oyining 17-kunida (1441-yil 9-fevral) Amir Temurning o'g'li Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Hirotida tug'ildi. Uning ajdodlari Amir Temurning donishmand maslahatchilaridan bo'lib, shahzoda Umarshayx Mirzoning murabbiysi bo'lgan. Chunonchi, tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asarida shunday yozadi: "... Amir Alisherdirkim, qadim zamonlardan uning mukarram bobolari va ajdodi oliy amirlar qatoridan joy olgan edilar. Umarshayx Mirzo ibn Amir Temur davrida ularning hayoti lavhiga ko'kaldoshlik baxti e'tibor qalami bilan yozib qo'yilgan edi" [Матлаи саъдайн (а),

331^a]¹. Ushbu asar hijriy 872-874-yillari (mil. 1467-1468; 1469-1470) orasida yozib tugatilgan va hijriy 875-yili (mil. 1470) muallif uni yana davom ettirib, o'sha yilning safar oyida (1470, avgust) ro'y bergan voqealarni ham qo'shgan [Матлаи саъдайн (а), 331^a].

Asarning navoiyshunoslik uchun ikki ahamiyatli jihati bor. Birinchidan, u Alisher Navoiy nomini tarixda ilk bor yozma qayd etgan manba hisoblanadi. Shuning uchun unda aks etgan Navoiy hayotiga aloqador ma'lumotlar tarixiy fakt sifatida muhim. Ma'lumotlar qisqacha axborot tarzida keltirilsa ham ulug' mutafakkir hayotini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, asar Navoiy nazorati ostida yakunlangan. Demak, Navoiy o'zi haqidagi qaydlarni ko'rgan. Ma'lumotning nihoyatda qisqa berilishiga qaraganda, Navoiyning o'zi shuni ma'qul ko'rgan bo'lishi mumkin. Tekshirishlar natijasida Alisher Navoiy davrida yaratilgan turli janrlarga mansub asarlarning birortasida ham ulug' amirning ota-bobolari haqida yetarli ma'lumot berilmaganiga ishonch hosil qildik.

Davlatshoh Samarqandiy o'z tazkirasida Navoiyning otasi to'g'risida juda qisqa to'xtaladi. "Navoiyning otasi Abulqosim Boburning ishonchli kishisi Chig'atoy ulusi ulug'laridan edi", – deyish bilan kifoyalanadi. Ayni paytda u Navoiyning otasi harbiy bo'lganini ta'kidlab o'tadi [Davlatshoh, 370]. Shunisi taajjubliki, Navoiy hayotlik payti va uning homiyligida yaratilgan barcha asarlarda Navoiyning ota-bobolari borasida yuqoridagi ma'lumotlarga qo'shimcha bo'ladigan fakt yo'q. Hatto Navoiy buyurtmasiga asosan yozilgan tarixiy asarlar – "Ravzat us-safo" va "Xulosatul-axbor"da ham uchramaydi. Bu, o'z navbatida, Amir Alisher o'z zamondoshlariga uning ota-bobolari haqida yozishga ruxsat bermagan, degan fikrga olib boradi.

Alisher Navoiyning o'zi ham ota-bobolari haqida deyarli ma'lumot qoldirmagan. Bir-ikki umumiy ma'lumotlarni hisobga olmaganda, albatta. "Badoye' ul-bidoya" devonining muqaddimasida "... ota-otadin yetti pushtg'a degincha bu rafi' dudmonning (Husayn Boyqaro sulolasining) boyiri bandasi (qadimdan xizmatida) va bu vasi' ostonning (dargohning) mavrusi tug'masi (sulolaviy tug'ishgani), ya'ni bu xonazodaning (Husayn Boyqaroning) xonavodasi (ichkisi, oila a'zosi), bu xonavodaning (sulolaning) xonazodasi (uyida tug'ilgan xizmatchisi)" deb o'zi va ota-bobolari temuriylar xonadoniga qarindoshlik darajasida yaqin bo'lganini ta'kidlab o'tgan [Badoye' ul-bidoya, 17]. Shuningdek, "Vaqfiya" asarida "bu xoksorning ota-obosi ul hazratning (Sulton Husayn Boyqaroning – Sh.S.) abo va

¹Fors tilidan muallif tarjiması. Kitobda keltirilgan barcha tarjimalar muallifga tegishlidir. Boshqaga tegishli bo'lganda tarjimon ismi ko'rsatiladi.

ajdodi xizmatlaridakim har biri saltanat konining gavhari va shujoat beshasining g'azanfari erdilar – ulug' marotibg'a sazovor va biyik manosibg'a komgor bo'lg'on erdilar", - deya o'zining nasl-nasabiga ishora etgan [Vaqfiya, 641]. Otasi haqida esa mavzu talab qilgan joyda biroz gapirishga majbur bo'lgan joylari mavjud. Masalan, "Majolis"da Mir Shohiy nomli shoir jasadi Astroboddan vatani Sabzavorga olib kelingan paytda uning otasi bu yerda hukumat ishlariga boshchilik qilib turganligini aytib o'tadi [Vaqfiya, 306]. Uning qancha payt hokimlik qilgani va Sabzavordagi hayoti haqida boshqa ma'lumot keltirmagan. Ammo negadir biron bir asarida ota-onasi ismlarini tilga olmaydi. Faqat tog'alari Mir Said Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiy haqida "Majolis un-nafois" tazkirasida bir oz to'xtaladi, u ham bo'lsa tazkira talabi nuqtayi nazaridan juda qisqa berilgan [Majolis, 335].

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, Amir Alisherning ota-bobolari bilan bog'liq ma'lumotlar faqat shoir vafotidan keyin yozilgan asarlarda uchraydi. Masalan, Navoiy davridagi manbalarda bir ovozdan Amir Alisherning ota-bobolari oliy amirlar qatorida bo'lganlari ta'kidlangan bo'lsa-da, Mirzo Haydar Do'g'lotning hijriy 951, milodiy 1544-1545-yil yozilgan "Tarixi Rashidiy" asarida uning kelib chiqishi haqida boshqacha ma'lumot berilgan. Jumladan, unda "Navoiy asli uyg'ur baxshilaridan edi" deb ta'kidlangan [Do'g'lot, 121^b]. Semenov Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlariga doir maqolasida "baxshilar-devon, mahkama xodimlari" deb quruqqina tushuntirish bilan cheklansa, T. Sultonov o'z tadqiqotida boshqa bir munosabat bilan Abulg'oz Bahodirning ta'rifi va V. V. Bartoldning xulosasiga asoslanib, baxshi-kotiblarning mavqei va vazifalari haqida ancha tushuntirish beradi: "...Uyg'ur xalqi orasida savodxon kishilar ko'p bo'lgan. Ular yozuv-chizuvlarni yaxshi olib borishar va devon hisob-kitoblarini yaxshi bilar edilar. Chingizxon sulolasi davrida Movarounnahr, Xuroson va Eronda devon va mahkama xodimlarining barchasi uyg'urlardan edi. Uyg'ur harfi bilan hujjat to'ldiradigan Turkiston xonlarining kotiblari va amaldorlariga nisbatan asl ma'nosi budda ruhoniylarini anglatuvchi "baxshi" (sanskritcha "bxikshu") istilohi qo'llanar edi". V. V. Bartoldning taxminicha, "mazkur kotiblar chig'atoy xonlari dargohida musulmon madaniyati vakillaridan ko'ra taxtga yaqinroq turganlar va tarixiy voqealarni zikr etib borish tamoman ularning qo'llarida bo'lgan" [Pamyatniki, 104-105]. Tarixchi olim Chingizxon davrida butparast uyg'urlar dini jihatidan mo'g'ullarga, tili jihatidan esa Markaziy Osiyo xalqlariga yaqin bo'lganliklari uchun mo'g'ul xonlari ulardan unumli foyda-

langanlar, tabiiyki, uyg'urlar musulmonlardan ko'ra mo'g'ullarga yaqinroq hisoblanganlar, deb xulosa chiqaradi. Mo'g'ullar istilosining dastlabki davrlarida balki shunday bo'lgandir. Jahongir Amir Temur Ko'ragonning tarixi yoritilgan "Zafarnoma"da Sharafiddin Ali Yazdiy yozuv-chizuv ishlarini olib boruvchi kishilarni "baxshiyoni turk" deb atagan [Zafarnoma, 99^b]. Bundan ma'lum bo'ladiki, Temur saroyida yozuv-chizuvlarni asosan mahalliy millatga mansub kotiblar olib borishgan. Biroq, kotib o'rnida baxshi so'zini ishlatish mo'g'ul xonlaridan an'ana bo'lib qolgani sababli har ikki atama bir ma'noda qo'llangan. Demak, Temur davrida kotiblarni baxshi nomi bilan atalishiga an'ana deb qaraladigan bo'lsa, unda Mirzo Haydar Navoiyni "uyg'ur baxshilaridan" deb atayotganida uning millatini emas, balki ajdodi saroy kotiblaridan bo'lganini aytmqochi ekanligi ma'lum bo'ladi. Shu narsaga e'tibor qaratish kerakki, bu ma'lumot Mirzo Haydar asaridan boshqa XV-XVI asr boshida yaratilgan biror-bir manbada uchramaydi. Navoiy bilan shaxsan tanish bo'lgan tarixchilar va olim-u ijodkorlarning bunday ma'lumot bermaganliklari tufayli Mirzo Haydar ma'lumotiga ehtiyot bo'lib yondashish talab etiladi.

Ikkinchidan, Mirzo Haydar Navoiyning vafotidan sal ilgariroq, ya'ni hijriy 905/1499-1500 mil. yili Toshkentda tug'ilgan. Umrining asosiy qismi Koshg'arda va oxiri Hindistonda o'tgan. Unda Navoiy haqidagi ma'lumotlarni ulug' shoirni shaxsan tanigan kishilardan olish imkoniyati yo'q edi. Hatto umrining oxirini boburiylar saroyida o'tkazgan Xondamir ham Mirzo Haydarning Hindga kelishidan taxminan yetti yilcha ilgari vafot etib ketgan edi. Shunday bo'lgach, Mirzo Haydar bahs etilayotgan mavzu bo'yicha o'z ma'lumotlarini qayta tekshirib ko'rish imkoniga ega emas edi.

Uchinchidan, tarixiy asar yaratilish jarayonida muallif ba'zida yozma manbalarga emas, balki uzunquloq gaplarga tayanib, ularni fakt sifatida qayd etganligi fanga ma'lum. Tarixchi olim T. Sultonov XV-XIX asrlarda yaratilgan tarixiy asarlar mazmuniga bag'ishlangan tadqiqotida ta'kidlashicha, Mirzo Haydar ham ko'pgina o'rinlarda shu yo'ldan borgan [Pamyatniki, 192].

Navoiyning o'zi ota-bobolari temuriylar saltanatida "ulug' marotibg'a sazovor va biyik manosibg'a komgor bo'lg'on erdilar" degan ekan, birinchi navbatda uning o'ziga ishonmoq kerak. Mirzo Haydarning shaxsiy fikri keyingi asrlarda yaratilgan ayrim manbalarda ham uchraydi. Jumladan, "Bahr ul-asror fi manoqib al-axyor" (1624-yil, Balx), "Tom ut-tavorix" (1557-yil, Buxoro), Fahmiyning "Tazkirat ush-shuaro" (XIX asr, Samarqand), Sadr Ziyo tazkiras-

da (XX asr, Buxoro) ham qisqa tarzda “Amir Alisherning ajdodlari uyg’ur baxshilaridan” degan qayd mavjud [Bahr ul-asror, 160^a; Хайитметов 1972, 184; Fahmiy, 36^a; Sadr Ziyo, 20^a]. E’tibor berilsa, ushbu bir xil ma’lumot faqat O’rta Osiyoda yaratilgan manbalarda uchramoqda. Shunisi qiziqki, “Tarixi Rashidiy” asarini chuqur o’rgangan tarixchi T. Sultonov ham uning nusxalari O’rta Osiyo va Sharqiy Turkistondan tashqarida, xususan, Yaqin Sharqda tarqalganligini alohida ta’kidlagan. Amir Alisherning “baxshi”lardan ekanligi haqidagi keyingi davrlarda uchragan ma’lumotlar Mirzo Haydar asaridan olinganiga shubha yo’q.

Xondamirning “Habib us-siyar” asarida (1524-yil tugatilgan) birinchi marta Navoiy otasining ismi zikr etiladi. Unda qayd etilishi-cha, shahzoda Mirzo Sulton Ibrohim b. Alauddavla b. Boysung’ur b. Shohruh Mirzo Samarqand hukmdori Abu Sa’id Mirzo huzuriga elchilar yuborilganda, ularga hamrohlik qilish Amir Alisherning otasi G’iyosiddin Kichkinaga topshirilgan [Habib us-siyar, 570^a]. Mirzo Haydar Do’g’lot ham uning otasi nomini Amir Kichkina tarzida keltiradi [Do’g’lot 121^b].

Navoiy vafotidan keyin 1521-1522-yilda yozilgan Faxriy Hirotiyning “Latoifnoma”sida shunday keltiriladi: “Mirning tarjimai holidan xabardor mo’ysafid tarixchilar va to’g’ri so’zli dunyo ko’rganlar o’z asarlarida shunday keltiradilarkim, Mirga amirlik mansabi merosiydur. Uning otasi Amir Kichkina sulton Abu Saidning xizmatida edi (gap Abu Sa’id Mirzo Xuroson taxtini egallagan 1457-yildan keyingi davr haqida ketmoqda – Sh.S.). Garchi muhr-u mansabi bo’lmasa ham katta hurmatga ega edi. Ona tomonidan bobosi Amir Shayx Abu Sa’id Chang Mirzo Boyqaro xonadonida amir ul-umaro edi. Mir o’n yoshligidan Bobur Mirzo xizmatida bo’lib, (sulton) uni farzandidek ko’rardi. Mir zamon sultoni (Husayn Boyqaro) bilan maktabda hamsuhbat va hamsaboq edi. Ular qachon boshlariga baxt qushi qo’nsa, bir-birlarini unutmaslikka ahd-u paymon bog’lashgan ekan” [Hirotiy 1944, 133]. Tazkira muqaddimasidagi ishoraga qaraganda, u mazkur ma’lumotlarda kimgadir suyangan. Balki Faxriy bizga yetib kelmagan qandaydir manbaga asoslangandir. Bu bizga qorong’i. Shunday bo’lsa ham nega Navoiyning ona tomonidan bobosi ismini ko’rsatib, ota tomoniga e’tibor bermaganligi taajjublanarli bo’lib turmoqda. Bu esa Xondamir asarlaridagi ma’lumotlar ruhiyatiga, shuningdek, Navoiyning o’zi “ota-otadin yetti pushtga degincha” degan e’tirofiga mantiqan bog’lanmaydi. Shu jihatdan olimlar Abu Sa’id Changni ona tomonidan deb ko’rsatilishi kotiblar xatosi bo’lishi mumkin deb o’ylashgan. Chunonchi, Y.E.Bertels yoza-

di: "Alisherning bobosi Abu Sa'id Chang Boyqaroning Qandahordagi qisqa davrli hukumati paytida uning devonida amir edi. Uning o'g'li, ya'ni Navoiyning otasi G'iyosiddin Kichkina Mansurning ko'kaldoshi edi" [Бертельс 1965, 25]. Biroq shu o'rinda aytish kerakki, G'iyosiddin Kichkinaning aynan Mansur bilan emikdosh bo'lganini ham, Qandahorda amir bo'lganini ham Bertels qayerdan olganini aniqlab bo'lmadi. Ammo Bertelsning Qandahor bilan bog'liq taxminida jon bor. Agar biz Husaynning bobosi Boyqaro Muhammad tarixiga nazar tashlasak, qiziq ma'lumotlarga duch kelamiz.

Boyqaro xonadoni fojeasi

Mirzo Boyqaro Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umarshayx Mirzo¹ va andijonlik zodagon Xizr O'g'lonning qizi Mulkat Oqodan tug'ilgan bo'lib, Amir Temur vafot etganda 12 yoshda, akasi Iskandar 21 yoshda bo'lgan [Zafarnoma, 491^b]. Shunday qilib, Boyqaroning tug'ilgan yilini 1392-1393-yillar qilib belgilash mumkin. Biroq uning akasi Iskandar Mirzoning tavallud sanasi aniq qilib hijriy 786, mil. 1384-yil ekani aytib o'tilgan. Umarshayx asosan Andijonda yashab, imperiyaning shimoli sharqiy hududlarini boshqargan. Chunki Amir Temur 773/1371-1372-yil Andijonni zabt etganda uni 17 yoshli Umarshayxga topshirgan edi [Натанзий 114; 191-192]. Samarqandda yashagan davridayoq Umarshayx uylangan bo'lib, birinchi xotinidan Pir Muhammad va Rustam ismli o'g'illari tarixda qayd etilgan. Hijriy 794 / mil. 1392-yilda Amir Temur Eronga yurish qiladi. Umarshayx ham u bilan birga ketadi. Temur 795/1392-yilda Muzaffariylarni mag'lub etib, Fors (poytaxti Isfahon) mamlakatini egallaydi. Fors mamlakati shahzoda Umarshayx Mirzo boshqaruviga topshiriladi [Zafarnoma, 234^b, 239^b]. Shu paytdan boshlab temuriylar hozirgi Afg'oniston va Eron hududlarida mustahkam o'rnashadilar. Umarshayx Sherozni o'zining poytaxtiga aylantiradi. Umarshayx shundan so'ng oilasi va yosh bolalarini olib kelish uchun o'z odamlarini Andijonga yuborgan [Натанзий, 199]. Amir Temurning Yaqin Sharqdagi navbatdagi 5 yillik urushi 794/1392-yilda boshlanganligi inobatga olinsa, Umarshayxning oilasi hozirgi O'zbekiston hududidan Eron yerlariga ko'chganda Iskandar Mirzo taxminan 9-10 yoshligida, Boyqaro Mirzo esa emizikli yoshda bo'lgan, deyish mumkin. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Umarshayx Sherozda bir yil turgan va keyin Amir Temur tomonidan Suriya yo'lidagi Diyorbakrga ko'mak uchun chaqirtirilgan [Zafarnoma, 253^a]. Umarshayx

¹Amir Temurning 4 nafar o'g'li bo'lgan: Muhammad Jahongir (1377-1378 yillarda vafot etgan), Umarshayx Mirzo (1354-1394), Mironshoh Mirzo (1366-1408) va Shohruh Mirzo (1377-1447). Umarshayx Amir Temurning To'lin Oqo ismli ikkinchi xotinidan tug'ilgan.

to'ng'ich o'g'li Pirmuhammad bilan otasining yoniga jo'nab ketadi, hokimiyatni esa ikkinchi xotini Mulkat Oqodan tug'ilgan o'g'li Iskandar Mirzoga topshiradi. Bu paytga kelib, 40 yoshda bo'lgan Umarshayx 796/1394-yilning Rabi' ul-avval oyida to'satdan Kurdistondagi Muxtasriy qal'asi devorlari yonida minoradan otilgan o'qdan halok bo'ladi. Sohobqiron farmoniga binoan u Sherozdagi Aryati qabristoniga dafn qilinadi, keyinchalik esa jasadi asl vatani Shahrisabzga ko'chiriladi. Yazdiyning yozishicha, uning ayollari Sevinch Qutlug', Mulkat Oqo va Beka Mulk Oqo hamda uning farzandlari, jumladan Iskandar Sherozda qoldiriladi [Zafarnoma, 254^b]. Fors mamlakatini boshqarish Umarshayxning katta o'g'li 24 yashar Pirmuhammadga topshiriladi [Zafarnoma, 254^a]. Uning ukasi Rustam Mirzoga Ajam Iroqi (poytaxti Isfahon) topshiriladi. Mulkat Oqodan tug'ilgan Iskandar Hamadonning hukmdori etib tayinlanadi. Tabiiyki, o'sha yillar qoidasiga ko'ra, Mulkat Oqo kichik o'g'li Boyqaro bilan Iskandar homiyligi ostida yashaydilar. Oradan ko'p o'tmay, Amir Temur siyosiy parokandalikning oldini olish maqsadida beva Mulkat Oqoni kichik o'g'li Shohrux Mirzoga nikolashga qaror qiladi [Matlai sa'dayn (a), 104]. Boyqaro Iskandarning yonida qoladi, onasi esa Hirotga ko'chib o'tadi. Tez orada, ya'ni 1395-yilda Mulkat Og'a o'g'il tug'adi, unga Suyurg'atmish Mirzo deb nom qo'yiladi.

... Amir Temur vafotidan so'ng shahzodalarning taxt uchun kurashlari boshlanib ketadi. Amir Temurning o'g'li Mironshoh 1408-yilda Qora Qo'yunlu turkmanlar bilan to'qnashuvda halok bo'ladi. Ozarbayjon va Ajam Iroqi yerlari turkmanlar qo'lga o'tadi. 1410-yilda suiqasd natijasida Umarshayxning katta o'g'li Pirmuhammad ham vafot etadi. Sheroz Iskandar tasarrufiga o'tadi. U ukasi Boyqaro bilan birga Hamadondan Sherozga ko'chib o'tadi. Sal o'tmay, Iskandar Ozarbayjon va Iroqni qaytarib olishga muvaffaq bo'ladi. Iskandar Mirzo Fors va Ajam Iroqini mustaqil boshqara boshlaydi. Shohruh Mirzo farmoni bilan (ehtimol Mulkat Oqo tashabbusi bilandir) 1412-yilda Boyqaro Ajam Iroqiga hukmdor etib tayinlanadi. Unga Hamadon, Vuruju, Naxovand va Luriston yerlari topshiriladi. Navoiyning bobosi Amir Shayx Abu Sa'id Mirzo Boyqaro xonadonida amir ul-umaro lavozimida faoliyat ko'rsatganligi haqidagi Faxriy Hirotiy ma'lumoti shu davrga taalluqli bo'lsa kerak [Hirotiy 1944, 133]. Ayni ma'lumotni qoldirgan Som Mirzo Navoiyning bobosi ismini Abu Sa'id Bek deb keltiradi [Tuhfai Somiy, 167^a]. Bundan shunday xulosa chiqadiki, Abu Sa'id Bek Mirzo Boyqaroga juda ham yaqin inson bo'lgan. Hatto taxminimizcha, ayni Abu Sa'id Boyqaro Mirzoga emikdosh-ko'kaldosh bo'lgan bo'lishi mumkin va shu jihat-

dan Boyqaro qayerda yashamasin, u bilan birga bo'lgan.

1413-yili Iskandar Sherozdan Isfahonga o'tadi va u yerni o'z poytaxtiga aylantiradi. 817/1414-yili Iskandar Mirzo Shohruhga bo'ysunmay qo'yadi, jahli chiqqan hukmdor lashkar jo'natib Isfahonni qamal qiladi. Iskandar taslim bo'ladi. Shohruh Iskandarni hibsga olib, Isfahonni Rustam Mirzoga, Sherozni esa nevarasi Ibrohim sultonga topshiradi. Iskandar ukasi Boyqaro Mirzoni Shohruh qaroriga qarshi chiqishga undaydi. 1415-yili Boyqaro Ibrohim Sultonni Sherozdan quvib chiqaradi. Shohruh g'azab bilan Sherozga bostirib boradi va Boyqaro Mirzoni shahzoda Qaydu Mirzo boshqarayotgan Qandahorga surgun qiladi [Matlai sa'dayn (b), 298]. Boyqaro Qandahorda ikki yil yashaydi: 1415-yildan 1417-yilgacha. U yerda ikki temuriyzoda: Qaydu Mirzo va Boyqaro Mirzo o'rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshilik bois 820/1417-yili Shohruh Boyqaro Mirzoni Qandahordan Samarqandga surgun qiladi [Matlai sa'dayn (b), 327]. Boyqaro Mirzoning keyingi taqdiri noma'lum va hech bir tarixiy manbada qayd etilmagan. Shu yerda Y. Bertelsning Abu Sa'id Boyqaroning amiri bo'lgan degan taxminini tasdiqlashimiz mumkin. Boyqaro Qaydu Mirzo bilan Qandahorni boshqargan. Navoiyning bobosi Abu Sa'id Bek ham uning eng yaqin kishisi va sadoqatli mulozimi sifatida Qandahorga kelgan bo'lishi mumkin. Boyqaro Mirzoning Qandahorga surgun qilinishi zindonband qilinish emas, balki jazolangan temuriy shahzoda sifatida chekka o'lkalarda yashashga majbur qilinishi sifatida tushunilishi lozim. Shohruh hukmdorligi davrida ana shunday isyonkorligi uchun yuzi shuvut bo'lgan va qattiq jazolangan Boyqaroni Mir Alisher nazdida tarixiy asarlarda oqlash va ayni chog'da ular bilan faxrlanishning iloji yo'q edi. Temuriylar tarixiga soya tushirmaslik tarafdori bo'lgan Mir Alisherning Boyqaro xonadoni va o'z ota-bobolari ismlarini tilga olmay o'tishining sababi shu bilan izohlanishi mumkin.

Husayn Mirzo va Alisher Navoiyning otalari haqida

Manbalardan bizga ma'lumki, Husayn Boyqaro 842-yilning Muharram oyida – milodiy 1438-yilning iyul oyida Hirotning shimoli-sharqiy tomonidagi Davlatxona nomli temuriylarga tegishli qo'rg'onda tug'ilgan [Habib us-siyar, 670; Lubb ut-tavorix, 145^a]. U Navoiydan 3 yosh katta bo'lgan. Boyqaro Mirzo xonadonining Qandahordan keyingi hayoti manbalarda qayd etilmagan. Shu bois Boyqaroning Qandahordan chiqarilgan 1417-yildan Husayn tug'ilgan 1438-yilgacha bo'lgan oraliqda ularning qayerda yashagani va Alisherlarning oilasi bilan birga kechirgan hayotlari tafsiloti bizga

ma'lum emas. Bizningcha, ayrim ma'lumotlarni nazarda tutish ham xato bo'lmaydi. Biz yoddan chiqarmasligimiz kerakki, Boyqaro Mirzoning onasi Mulkat Oqo 844/1440-yilgacha hayot bo'lgan [Matlai sa'dayn (b), 104]. U nabiralarni tashlab qo'ygan bo'lishi mumkin emas. Buvi tirikligida G'iyosiddin Mansur Amir Temurning qizidan tug'ilgan Sulton Husayn ibn Amir Muhammad ibn Amir Musoning qizi Feruza Begimni o'z nikohiga oladi. Feruza Begimdan Boyqaro (1430-1487), Husayn (1438-1506) va bir qiz dunyoga keladi. G'iyosiddin Mansur hijriy 849/1445-1446-yil vafot etgan [Matlai sa'dayn (b), 372; Mir Yahyo Qazviniiy 145^a]. Feruza Begim esa hijriy 874 / Muharram oyining 14-kunida / mil. 1469-yil 25-iyulda vafot etadi [Matlai sa'dayn (b), 644; Mir Yahyo Qazviniiy 145^a]. Shundan ham bilsa bo'ladiki, Boyqaro Mirzo Samarqandga jo'natilgandan so'ng Mulkat Oqo o'z nabiralarning yagona tayanchiga aylanadi. U bu vaqtda o'g'li Suyurg'atmish Mirzo bilan Kobulda yashar edi [Matlai sa'dayn (b), 343]. Suyurg'atmish Mirzo hijriy 821/1417-1418-yili Shohrux Mirzo tomonidan Kobul va G'azni yerlariga hokim qilib tayinlangan edi. Boyqaro xonadoni a'zolari bir muddat Kobulda istiqomat qilgan bo'lishlari ham mumkin. Suyurg'atmish Mirzo hijriy 830-yil Muharram oyining 16-kunida /1426-yil 17-noyabrda vafot etadi [Matlai sa'dayn (b), 480]. Biroq Mulkat Oqo Hirotga qaytganmi yo'qmi, noma'lum. Faqat Mulkat Oqo Kobulda vafot etgani va uning jasadini Balxga keltirilib, o'zi bino etgan madrasa sahnida dafn etilgani ma'lum [Файзиев 1995, 301].

Manbalarda Husaynning otasi G'iyosiddin Mansur, Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkina tarzida qayd etilgan. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro bolalikdan birga tarbiyalanganlar. Buni zamon-doshlari ham, ularning o'zlari ham tasdiqlaydilar. Ushbu fakt ularning ota-bobolaridan davom etib kelayotgan sulolaviy yaqinlik hech qachon uzilmaganini bildiradi. Biroq, shu yerda savol tug'iladi. Nega manbalarda Alisherning otasi Kichkina laqabi bilan keltiriladi?

Faxriyning Amir Kichkina haqidagi ma'lumotlaridan ikki muhim xulosa chiqarish mumkin. Birinchisi, Faxriy bizga ma'lum manbalarning ichida birinchi bo'lib, Amir Kichkina Sulton Abu Sa'id Mirzo saroyida xizmat qilganini yozib qoldirgan. Bu gaplarda jon bor. Abulqosim Bobur vafot etib, Xurosonda to's-to'polon boshlanganda shahzodalar birin-ketin taxtga o'tirishar va sal o'tmay biri ikkinchisining siquviga bardosh bera olmasdan Hirotni tashlab qochar edi. Shunday sharoitda taxtni Mirzo Ibrohim egallaydi. U Hirot taxtni saqlab qolish maqsadida o'z atrofiga saltanat ulug'larini yig'adi va Abu Sa'id bilan ittifoq tuzishga harakat qiladi. Buni Hirot saltana-

tinging obro'li arboblardan bir nechasini sulton Abu Sa'id qoshiga yuborishida ko'ramiz. Elchilar Shayx Nuriddin ibn Bahouddin Umar, Shayx Shamsiddin Jomiy va Amir Burhoniddin bo'lib, ularni kuza-tib boruvchi hamroh sifatida Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkina tayinlanadi. Abu Sa'id ularni izzat-ikrom bilan qabul qiladi va kuza-tib qo'yadi [Habib us-siyar, 570^a]. Demak, Abu Sa'id Mirzo G'iyosiddin Kichkina bilan muloqotda bo'lgan. Tarixiy yilnomalardan ma'lumki, o'sha yiliyoq Abu Sa'id Hirotni egallaydi. Sulton Abu Sa'id Abulqosim Bobur amaldorlaridan bir qanchasini o'z saroyida qoldir-ganida G'iyosiddin Kichkinani ham hamsuhbat sifatida qoldirgan bo'lishi ehtimolga yaqin. Zotan, Shohruxning nevarasi Mirzo Ibrohim o'zi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifani G'iyosiddin Kichkinaga topshiribdimi, demak u shu paytda saltanatning obro'li kishilaridan bo'lgan. G'iyosiddin Kichkinaning Abu Sa'id davrida tirik ekanligi zamonaviy navoiyshunoslikdagi "Navoiyning otasi shoir yoshligida (11-12-yoshlarda) vafot etgan" degan aqida-ni noto'g'ri ekanligini ko'rsatadi¹. Ikkinchisi, "Habib us-siyar"da G'iyosiddinning amirlik davri haqida gapirila turib, rasmiy ohang-da G'iyosiddin Kichkina deb ko'rsatilishi Faxriy ma'lumotlari bilan birlashtirilganda, bu laqabning ulug'lovchi sifatga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Shu o'rinda Kichkina laqabining kelib chiqishi haqida mantiqiy faraz qilib ko'rish mumkin. Saroy ahli ularning ismlari bir xil bo'lganligidan, amirning o'g'lini farqlash uchun G'iyosiddin Kichkina deb atagan bo'lishlari ehtimolga yaqin. Mazkur laqab ko'kal-doshlik belgisi kabi temuriylarga yaqinligini izohlab turgani uchun bir umr uning nomiga qo'shib aytilgan bo'lishi mumkin.

Som Mirzo Safaviyning "Tuhfai Somiy" tazkirasida Faxriy ma'lumotlari deyarli takrorlangan [Tuhfai Somiy, 167^a]. Biroq undan farqli ravishda Navoiyning otasi Kichkina Bahodir tarzida tanishtirilgan. Tazkira yozilgan davr Navoiy davriga nisbatan yaqin bo'lgani uchun bu o'zgartirishda biror ma'lumotga tayanilgan deb o'ylashga asos bor. "Temur tuzuklari"da aytilishicha, qaysi amir mamlakat yo bir qo'shinni yengsa, unga birinchi navbatda tug' berib, bahodirlik laqabi rasmiy ravishda uning nomiga qo'shib yozilgan. So'ng chega-ra viloyatlaridan biriga hokim etib tayinlangan (Темур тузуқлари 1991, 78]. G'iyosiddin Kichkinaning bizga ma'lum faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Som Mirzoning ma'lumoti asosidek ko'rinadi.

¹Ayniy Alisher 12 yoshdalgida otasi vafot etgan deb hisoblaydi. Qarang: Айний С. Танланган илмий асарлар. Тошкент, Фан, 1978, 119.

Xulosa

Amir Alisherning hayoti va ijodi 100 yildan beri izchil o'rganib kelinayotgan bo'lsa-da, tarjimai holi to'liq tiklanmadi. Bugungi kun kitobxoniga ma'lum shoir tarjimai holi o'tgan asr boshida rus olimi V.V.Bartold tomonidan taqdim etilgan materiallar asosida shakllantirildi. Garchi olim o'zining "Mir Ali Shir va siyosiy hayot" asarida shoir hayotiga oid barcha ma'lumotlarni yig'ishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaganini e'tirof etgan bo'lsa-da [Бартольд 1964, 200], bu asar dunyo navoiyshunosligida o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Albatta, insof yuzasidan aytmoq lozimki, o'tgan davrda navoiyshunoslikda shoir hayoti bilan bog'liq bir qancha yangi ma'lumotlar ilmiy iste'molga kiritildi. Biroq ular ham V.V.Bartold belgilab ketgan "real obraz"ni mustahkamlashga bo'ysundirildi. Holbuki, Alisher Navoiyning hayoti tafsilotlari bilan bog'liq ma'lumotlar siyosiy yondashuvdan xoli ravishda, uning asarlarida berilgan ishoralar, shoir zamondoshlari ma'lumotlarining qiyosiy tahlili orqali tekshirib borilishi lozim edi. Afsuski, "maqsadli qolip"ga solingan tarjimai hol ulug' shoir va davlat arbobining haqiqiy hayot yo'lini yoritishga imkon bermadi. Hatto shoirni oddiy xalq vakili sifatida ko'rsatishga urinishlar uning ota-bobolari mavqelarini pasaytirish, shoirning kelib chiqishini avom toifasiga bog'lashga olib keldi. Uzoq yillik tadqiqotlarimizda shunga amin bo'ldikki, qo'lga kiritayotgan manbalarimizda bir tafsilot atrofida bir-biridan farq qiluvchi sanalar va xulosalar uchraydi. Bu, o'z-o'zidan, dastlabki izlanishlar yuzasidan chiqargan xulosalarimiz bilan cheklanmay o'sha davr manbalarida sochilib ketgan turli ma'lumotlarni bir tizimga solish va yanada xolis ilmiy natijalar olish ishlarini davom ettirishimizni taqozo etadi.

Adabiyotlar

- Ayniy: Садриддин Айний. *Танланган илмий асарлар*. Тошкент, Фан, 1978.
- Bartold: Бартольд, В. В. *Мир Али-Шир и политическая жизнь*. Сочин. в IX томах. Т. II. Ч. 2. Москва, Наука, 1964.
- Bertels: Бертельс, Е.Э. *Навои и Джамии*. Избр.труды. Москва, Наука.1965.
- Do'g'lot: Мирзо Ҳайдар Дўғлот. تاريخ رشدى *Тарихи Рашидий*. Қўлёзма. ЎЗР ФА ШИ, инв. № 1430.
- Fayziyev: Турғун Файзиев. *Темурийлар шажараси*. Тошкент, Ёзувчи. 1995.
- Fahmiy: Абдулматлаб Фаҳмий. تذكرة الشعر *Тазкират уш-шуаро*. Қўлёзма, ЎЗР ФА ШИ, № 2331.
- Hayitmetov: Абдуқодир Ҳайитметов. 1972. "Навоий ҳақидаги янги маълумотлар" *Шарқ юлдузи* 9: 183-188.

- Hirotiy: Фахрий Ҳиротий. لطائفنامه *Латоифнома*. Таржума-йи “Мажолис ун-нафоис”и Алишер Навоий. Ба саъй ва эҳтимоми Али Асғар Ҳикмат. Техрон, 1323/1944.
- Badoye’ ul-bidoya: Алишер Навоий. *Бадоеъ ул-бидоя*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. I жилд. Тошкент: Фан. 1987.
- Majolis: Алишер Навоий. *Мажолис ун-нафоис*. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик. Жилд IX, Тошкент, Ғафур Ғулом НМИУ, 2011.
- Vaqfiya: Алишер Навоий. *Вақфия*. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик. Жилд IX, Тошкент, Ғафур Ғулом НМИУ, 2011.
- Natanziy: Муиниддин Натанзий. منتخب التواريخ *Мунтахаб ут-таворихи Муиний*. Форс тилидан Ғулом Каримий таржимаси. Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
- Matlai sa’dayn (a): Абдураззоқ Самарқандий. مطلع السعدين و مجمع البحرين *Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн*. Қўлёзма. ЎЗР ФА ШИ, инв. № 1825.
- Matlai sa’dayn (b): Абдураззоқ Самарқандий. مطلع السعدين و مجمع البحرين *Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн*. Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
- Davlatshoh: Давлатшоҳ Самарқандий. تذكرة الشعر *Тазкират уш-шуро*. Ба ҳиммати Муҳаммад Рамазоний. Техрон.
- Tuhfa-yi Somiy: Сом Мирзо Сафавий. طحفه سامی *Туҳфа-йи Сомий*. Қўлёзма. ЎЗР ФА ШИ, инв. № 57.
- Ramyatniki,: Султанов, Т. 1988. *Памятники исторической литературы Средней Азии и Восточного Туркестана XV-XIX вв.* Дисс. на соиск. уч. ст. докт. ист. наук. Ленинград.
- Sadr Ziyo: Шарифжон Махдум Садр Зиё. بياض *Баёз*. Қўлёзма. ЎЗР ФА ШИ, № 2315.
- Temur tuzuklari: Амир Темур. *Темур тузуклари*. Форсийдан Алихон Соғуний ва Ҳ. Кароматов таржимаси. Тошкент. 1991.
- Bahr ul-asror: Маҳмуд бин Вали. بحر الاسار *Баҳр ул-асрор*. Қўлёзма. ЎЗРФА ШИ, № 1375.
- Habib us-siyar: Ғиёсиддин Хондамир. حبيب السير في اخبار البشر *Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар*. Қўлёзма. ЎЗР ФА ШИ, инв. № 2153. IV жилд.
- Lubb ut-tavorix: Мир Яҳё Қазвиний. لب التواريخ *Лубб ут-таворих*. Қўлёзма. инв. № 3863.
- Zafarnoma: Шарафиддин Али Яздий. ظفرنامه *Зафарнома*. Қўлёзма. ЎЗР ФА ШИ, инв. № 4472.

Shuhrat S. Sirojiddinov

(Tashkent, Uzbekistan)

shsirojiddinov@navoiy-uni.uz
shsirojiddinov1961@gmail.com

On Navo'i's Ancestors

Abstract

In the available sources there is almost no information which might produce a full impression of Alisher Navoi's ancestors. The poet himself said a sentence or two when the subject required. The information presented in the works of his contemporaries is fragmentary and, in some cases, logically not connected with one another. This article provides a comparative analysis of the information in the manuscript sources and introduces first initial views on the great poet and statesman's relations with his ancestors and his relationship and position regarding the Timurids.

Key words: Alisher, Barthold, Timurids, Boyqaro, Navo'i studies, Sultan Husayn, Babur, Khurasan, Herat.

About the author: *Shuhrat S. Sirojiddinov* – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

For citation: Sirojiddinov, Sh. S. 2019. "On Navo'i's Ancestors". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 6–19.

References

- Ayniy: Sadriddin Ayniy. *Tanlangan ilmiy asarlar*. Toshkent, Fan, 1978.
- Bartold: Bartold, V. V. *Mir Ali-Shir i politicheskaya jizn*. Sochin. v IX tomax. T. II. CH. 2. Moskva, Nauka, 1964.
- Bertels: Bertels, Ye. E. *Navoi i Djami*. Izbr. trudi. Moskva, Nauka. 1965.
- Tarixi Rashidi: Mirzā Haydar Doghlāt. تاریخ رشیدی *Tarixi Rashidi*. MS. IOS ASUZ, №1430.
- Fayziyev: Turg'un Fayziyev. *Temuriylar shajarasi*. Toshkent, Yozuvchi. 1995.
- Fahmi: Abd al-Matlab Fahmi. تذكرة الشعر *Tazkirat ush-shuarā*. MS: IOS ASUZ, №2331.
- Hayitmetov: Abduqodir Hayitmetov. 1972. "Navoiy haqidagi yangi ma'lumotlar" *Sharq yulduzi* 9: 183-188.
- Fakhri Hirāti: Fakhri Hirāti. لطائفنامه *Latāifnāma*. Tarjuma-yi "Majālis un-nafāis"i Alisher Navāi. Ba say' va ehtimāmi Ali Asg'ar Hikmat.

- Tehrān, 1323 /1944.
- Badoye' ul-bidoya: Alisher Navoiy. *Badoye' ul-bidoya*. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. I jild. Toshkent: Fan. 1987.
- Majolis: Alisher Navoiy. *Majolis un nafa'is*. To'la asarlar to'plami, 10 jildlik. Jild IX, Toshkent, G'afur G'ulom NMIU, 2011.
- Vaqfiya: Alisher Navoiy. *Vaqfiya*. To'la asarlar to'plami, 10 jildlik. Jild IX, Toshkent, G'afur G'ulom NMIU, 2011.
- Natanziy: Muiniddin Natanziy. منتخب التواريخ *Muntaxab ut-tavorixi Muiniy*. Fors tilidan G'ulom Karimiy tarjimasi. Toshkent: O'zbekiston, 2011.
- Matlai sa'dayn (a): Abd ar-Razzāq Samarqandi. مطلع السعدين و مجمع البحرين *Matlai sa'dayn va majmai bahrayn*. MS. IOS ASUZ, № 1825.
- Matlai sa'dayn (b): Abd ar-Razzāq Samarqandi. مطلع السعدين و مجمع البحرين *Matlai sa'dayn va majmai bahrayn*. Trans. from Persian by A.Urinboyev. Tashkent: Uzbekistan, 2008.
- Davlatshāh: Davlatshāh Samarqandi. تذكرة الشعر *Tazkiratush-shuarā*. Ba himmati Muhammad Ramazāni. Tehrān, 1338 /1959.
- Tuhfa-i Sāmi: Sām Mirzā Safavi. طحفه سامی *Tuhfa-i Sāmi*. MS: IOS ASUZ, №57.
- Pamyatniki,; Sultanov, T. 1988. *Pamyatniki istoricheskoy literaturi Sredney Azii i Vostochnogo Turkestana XV-XIX vv.* Diss. na soisk. uch. st. dokt. ist. nauk. Leningrad.
- Sadr Ziyā: Sharifjān Makhdum Sadr Ziyā. بياض *Bayāz*. MS: IOS ASUZ, №2315.
- Temur tuzuklari: Amir Temur. *Temur tuzuklari*. Forsiydan Alixon Sog'uniy va H. Karomatov tarjimasi. Toshkent. 1991.
- Bahr ul-asrār: Mahmud bin Vali. بحر الاسار *Bahr ul-asrār*. MS: IOS ASUZ, №1375.
- Habibu-s-siyar: G'iyās ad-Din Khwāndamir. حبيب السير في اخبار البشر *Habibu-s-siyar fi akhbāri afrādi bashar*. MS: IOS ASUZ, inv. №2153. IV jild.
- Lubb at-tavārix: Mir Yahyā Qazvini. لب التواريخ *Lubb at-tavārix*. MS: IOSASUZ №3863.
- Yazdi: Sharaf ad-Din Ali Yazdi. ظفرنامه *Zafarnāma*. MS: IOS ASUZ. №4472.

Aidakhon Bumatova

(Tashkent, Uzbekistan)
aidabumatova@gmail.com
bumatova@navoiy-uni.uz

Keeping Harmony of Poetical Units in the Translation of a Poem

Abstract

Translation in general and poetry translation in particular is considered to be the most difficult and complex task to perform. There are a lot of people who have been trying to render the beautiful representatives of fine literature of the world to the TL. In most cases, the translator comes across with the difficulty of reaching the harmony between the form and the meaning in this process. The article discusses the process of reaching the harmony between the original and translation texts' form and meaning. In a broad sense, it is logical enough to consider that to translate a poem is much easier than, for instance, rendering of novels, stories and any other types of written genre of a literature, because of its shorter forms. Nevertheless, the paper will answer to the question whether this shallow "easiness" provides the required quality or creates artificial obstacles on the way of a proper understanding of the translated poetic text by receptors.

Key words: poetic translation, harmony, poetics, rhythm, form, meaning, foot, poetic embroidery, pragmatic meaning.

About the author: *Aidakhon M. Bumatova* – PhD student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

For citation: Bumatova, A. M. 2019. "Keeping Harmony of Poetical Units in the Translation of a Poem". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 20-41.

Introduction

Poetic translation is of a great importance in the process of acquisition of the national poetry to the globe. Rendering the pearls of literature to the world languages is a practice which makes the nation's literature well-known to the world. Being a transparent

display of culture and everyday life of a nation, literature contains great chunks of very valuable information about people it belongs to. Because of this fact, any kind of literature, first of all, plays an important role in international communication; secondly, be it in the form of prose or poetry, any literary text is constructed of a lot of linguistic intricacies. Except from vast varieties of structures and stylistic registers, literary text will always have pragmatic and cultural specifics that bestow the uniqueness on it. These characteristics are the main reasons why the translation of a sample of fine-literature is considered to be one of the most difficult and challenging one among other types of translation; this thesis gets almost axiomatic one, when we are dealing with a poetic translation, which requires the recreation of not only the meaning but in ideal the form as well; that includes the transformations of rhythm, rhyme, foot, meter and all the poetic devices without which it is impossible to imagine any poem. Rendering a poetic unit, therefore, means not only dealing with the language, but with the culture of a ST, as well. As it was fairly noted by a prominent translator and linguist Eugene Nida: "differences between cultures may cause more severe complications for the translator than do differences in language structure" [Nida 130].


The texts of rubaiyat and ghazaliyat of Islamic classical literature have a very specific imagery system, which involves a vast use of metaphors, similes, and many more kinds of stylistic devices. In some sources, the idea is so complicated that a special use of explanatory texts will be needed in order to understand them in SL. In most cases, the translation of such kind of literature does not consist of only rendering of the words and structures of the original. A good understanding of the poetical value and traditions of the text will be the key in the creation of a quality poetic text in TL.

Always serving two masters, that are the language of a ST and TT, any translator will come across with the moral dilemma. This issue becomes even more actual in terms of the poetry translation. Most scholars, who consider the translation of a poem as an impossible mission, rely on the fact that translator will never be able to render the form that includes the meter, rhythm and rhyme. It is a fair point as mostly, as there is no any language that will be similar to the other one in terms of phonetic and phonological level, we could say that we are not able to render the quality of the form of an original. Nevertheless, a poem is not only the form. Form is a crucial part of it, but it is a part, not the whole poem. The other part of a poem is its

meaning that carries a communicative message to a reader. It is very important to mention, that most of the cases, the meaning is very closely tied to the poem, and so, any troubles on rendering of a text into the TL will definitely have negative consequences in the meaning transfer. Nonetheless, taking into consideration the fact that there are vast varieties of transformations available in the process, we can afford and should aim to have a good poetic translation.

Translation procedures and strategies

There are several strategies and methods suggested by different scholars in order to meet the challenge of translation of the culture specified items. For instance, two French linguists, Vinay and Dalbarnet, who have contributed a lot into the issues of the equivalency in translation along with Jakobson, Nida and Taber, Catford, House, Baker, have stated two main types of translation procedures: direct and oblique, which include the following:



As it can be seen from the graph above, in case of the direct translations there is a big chance of keeping mostly the structure of a poem. This method can also be used to create the poem that will be read as a translation. Formalist scholars, who do not see any plausible reason of translation poetry without keeping the structural characteristic, value the procedures of the direct translation. The advantages of this method could be seen in the fact that, it is very useful in the translation of cultural specific words and combinations; moreover, it will allow enrich the TL with neologisms. Finally, a translator can easily proof the highest level of the formal correspondence to the ST. On the other hand, the disadvantages of the direct translations procedures can be clearly seen in the pair of the languages of ST and TT, which do not relate each other. In this case, borrowings, calques and literally translated words will look like extremely artificial and odd. The text will be written in a TL but it will

not have the coherence and cohesion of the language. The translation will look like a puzzle, which in its turn will not find its place in a foreign culture. To make long story short, when a translator gets a precise formal correspondence to the text of the original, in most cases, it will be on the cost of the meaning.

Oblique procedures are complete antagonist to the formal translation. These procedures suppose a complete transformation of the form for the sake of the recreation of the meaning. Using syntactical transpositions is a very reliable way of providing the coherence and cohesion and natural sentence flow of the TL. In the pair of Uzbek-English, it will be a must-have procedure if we take into consideration the fact that the sentence structure in Uzbek requires the formula of: "S+OBJ+P"; whereas the English sentences are made according to the formula of: "S+P+OBJ".

tasvirlari esa Choch, Farg'ona, Sug'dning qadimgi turkiy tangalari-dan ancha-muncha ajralib turadi. Bu turdagi To'xoriston tangalari-da biroz qisqirgan ko'zilik, yumaloq yuzilik deyarli ko'zga tashlanmaydi. Hukmdorlar ko'proq jingalak sochli, qirra burunli qilib chizilgan bo'lib, shu va boshqa tomonlari bilan ushbu tasvirlar ilk o'rta asrlar To'xoriston tasviriy san'atini eslatadi (1-rasm. 16-17).

To'xoriston tangalaridagi tamg'alar masalasi

Yuqorida keltirilgan tangalar turkumining 5 tasida biri-ikkinchisidan ajralib turuvchi tamg'alar uchraydi. Ular quyidagicha:

1) , 2)  /  / , 3) , 4) , 5) .

Qizig'i shundaki, ushbu tamg'alardan 3 tasi 6-8 asrlarda G'arbiy Turk xoqonligi tomonidan Chochda bostirilgan tangalardagi tamg'alar bilan deyarli bir xil bo'lib, ular o'zaro solishtirilganda quyidagicha o'zaro o'xshashlik ko'zga tashlanadi:  / ,  () ,  /  (Choch) - ,  ( / ) , ,  (To'xoriston).

To'xoriston va Choch tangalaridagi tamg'alar qiyosiga atab yozgan maqolamizda Chochning , , ,  / ,  /  ko'rinishdagi tamg'alari bilan To'xoristonning , , ,  /  ko'rinishdagi tamg'alari o'zaro o'xshashligiga urg'u bergan [Бабаяров, Кубатин 2010, 3-13; Babayarov 2017, 5-20], shuningdek, ushbu tamg'alar orasida  ko'rinishidagi tamg'a va uning variantlaridan birining () qadimgi turk va sug'diy yozuvli "xoqon" unvonli Farg'ona tangalarida () va Sug'dning kichik hukmdorliklaridan biri – Panch tangalaridagi ( / ) tamg'alar bilan ham yaqin o'xshashlik borligiga to'xtalib o'tgan edik. Shuningdek, Chochda bostirilgan old yuzida ikki o'rkachli tuya tasviri, orqa yuzida  /  ko'rinishdagi tamg'a va uning tegrasida sug'diy yozuvda *prn* βyy x'γ'n "Ilohiy qut (sohibi) xoqon" unvoni uchraydigan G'arbiy Turk xoqonligi tangalari bilan old yuzida qo'shaloq tasvir (hukmdor va malika), orqa yuzida esa  tamg'a va uning yonida sug'diy yozuvda *prn* xwβw "Ilohiy hukmdor" so'zlari o'rin olgan To'xoriston, aniqrog'i, Chag'oniylar tangalarini o'zaro solishtirib, ular orasida qandaydir bir bog'liqlik borligiga to'xtalgan edik. Qizig'i shundaki, Sosoniylar Eroni tangalari sirtidagi bosmalar orasida  ko'rinishidagi tamg'a va baqtriycha yozuv uchrashi (*qar. zeno.ru* - #20913) Chag'oniylar hukmdorlarining To'xoristondagi boshqa turkiy sulolalar boshqaruvchilari kabi Sosoniylar tangasining o'z hududida muomalada bo'lishini ta'minlashga intilganliklarini ko'rsatadi.

Shu o'rinda E. V. Rtveladzening keyingi yillardagi izlanishlarida To'xoristonning Guftan (G'arbiy Surxondaryo) hukmdorligi

tangalarida uchraydigan ,  ko'rinishdagi tamg'alarining Turk xoqonligi va ushbu o'lkadagi turkiy sulolalar bilan bog'liqligiga urg'u berganini aytib o'tish kerak [Ртваледзе 2006, 119].

Yuqorida keltirilgan har uchala hukmdorlik – Choch, Farg'ona va Panch yozma va numizmatik materiallardan ma'lum bo'lishicha, kelib chiqishi Turk xoqonligining boshqaruvchi xonadoni – Ashina sulolasiga mansub yoki xoqonlik bilan yaqin qarindoshlikka ega turkiy sulolalar tomonidan boshqarilgan bo'lib [Лившиц 1979, 56-69; Skaff 2002, 364-372; Бабаяров 2007, 34-35; Stark 2008, 210-211, 224-225], ushbu sulolalar tangalarida turkiy unvon va o'xshash tamg'alar o'rin olishi o'zining tarixiy negizlariga ega. Demak, To'xoriston tangalaridagi tamg'alarining ko'pchiligi ushbu hukmdorliklarning tamg'alari bilan yaqin o'xshashligi ham o'sha chog'larda o'lkani turkiy sulolalar boshqarganligi bilan uzviy bog'liqdir. Hech bo'lmaganda ular orasida  tamg'ali tangalar To'xoriston Yabg'ulari sulolasi bilan,  ko'rinishdagisi esa To'xoristondagi yirik hukmdorliklardan biri – Chag'oniyon bilan bog'liq bo'lsa kerak. Bunday deyishimizning negizida har ikkala tamg'aning G'arbiy Turk xoqonligi (Choch) tangalaridagi “xoqon” unvonli tangalardagi tamg'alar bilan yaqin o'xshashligi yotadi. Bu davrda To'xoristonda G'arbiy Turk xoqonligining yana bir tarmog'i – Yabg'ular sulolasi boshqaruvda bo'lsa, Chag'oniyonda esa kelib chiqishi xoqonlikka borib taqaluvchi sulola boshqaruvda edi (Бобоёров 2003, 3-10; Джуманиёзова 2018, 15-17).

Vaxshdan topilgan tangalardagi tamg'alar () ham o'z tarixiy negiziga ega. VII–VIII asrlarda Choch Teginlari (605-750) tomonidan bostirilgan *tk'yn* / *tkyn* “tegin” unvonli tangalarda ham yuqorida keltirilgan 22-23-tangalar bilan yaqin o'xshashlikka ega  ko'rinishdagi tamg'a o'rin olgan bo'lib [*qar.* Babayarov 2007, 40-44], ushbu tamg'a G'arbiy Turk xoqonligi tangalari (Choch) tamg'alaridan birining () birmuncha o'zgarishga uchragan turidir (1-rasm. 1-3, 5-6) [Бабаяров 2019, 356-357]. Bu turkumdagi tangalarning ko'pchiligi tarixiy Vaxsh (Tojikiston) hukmdorligi tuproqlaridan topilayotganligi ularni islomdan oldin bu yerni boshqargan turkiy sulola bilan bog'lashga imkon beradi. Shuningdek, bu tamg'alar (, ) G'arbiy Turk xoqonligining boshqa bir tarmog'i bo'lmish Farg'onaning Ashina xonadoniga tegishli qadimgi turk-run va sug'diy yozuvli “xoqon” unvonli tangalardagi tamg'alar () bilan yaqin o'xshashlikka egaligi ko'zga tashlanadi (*qar.* 1-rasm. 7-8) [Babayar 2008, 136-46]. Xitoy va arab manbalaridan bu davrda Vaxsh hamda unga yaqin Shuman va Axarun kabi kichik hukmdorliklar

boshqaruvida turkiy sulola turgani anglashiladi [Grenet, Vaissiere 2002, 177; Бобоёров 2002, 10-11].

To'xoriston tangalaridagi, aniqrog'i, ushbu o'lkaga qarashli Termiz hukmdorligiga tegishli tangalarda o'rin olgan  ko'rinishidagi tamg'aning G'arbiy Turk xoqonligining *trδw x'γ'n* "Tardu xoqon" unvonli tangalaridagi tamg'a ( / ) va Panch hukmdorligining yuqorida keltirilgan tangasidagi ikkinchi tamg'asi () bilan birmuncha o'xshashligi bordek ko'rinadi. Biroq bu o'xshashlik tasodifiy bo'lsa kerak.

Sug'diy yozuvda *x'γ'n* "xoqon" unvoni yoki *δšcy βyu* "Ilohiy (i)dishchi" / "Tish ilohi" iboralari va  ko'rinishdagi tamg'a uchrashi (12-13 rasmlar) bir qator tadqiqotchilar urg'u berganidek, Turgash xoqonligi bilan bog'liqdir. Yozma manbalarda G'arbiy Turk xoqonligining ittifoqchi urug'laridan biri bo'lgan turgashlarning VIII asrning ilk choragida G'arbiy Turk xoqonligi o'rnini egallagani va shu asrning 30-yillarida Choch, Sug'd, Buxoro, To'xoriston hukmdorliklariga bosh bo'lib, arablarga qarshi safar uyushtirgani va To'xoristonga kelganliklari tilga olinadi [Esin 1977, 324; Кляшторный 1985, 165-168]. Demak, Turgash xoqonlari ham G'arbiy turk xoqonlari kabi Sosoniylar tangasining o'z hududida qo'llanilishini ta'minlash uchun tangalarga o'z tamg'asini bosgan bo'lib chiqadi.

To'xoriston Yabg'ularining boshqaruv markazi Balx bo'lgan chog'larda esa tangalarning ko'pchiligi pahlaviy yozuvda *ybgw bhlk'n* "Balx / Baqtriya yabg'usi = To'xoriston yabg'usi" so'zlari o'rin olgan edi [Göbl 1967, 182-183]. Aytib o'tish kerak, bu turkumdagi tangalarni ilk bor o'rgangan R.Gyobl ularni qadimgi turklar bilan bog'lamagan bo'lsa-da, ko'pchilik tadqiqotchilar ushbu tangalarning To'xoriston Yabg'ulariga tegishli ekanligini olg'a surishgan [Esin 1972, 348-350, n. 140; Harmatta, Litvinsky 1996, 367-401].

To'xoriston tangalarida qadimgi turkcha unvonlar o'rin olishining tarixiy ildizlari

Xo'sh, yuqorida keltirilgan numizmatik topilmalar aynan qanday tarixiy voqealiklar bilan bog'liq? Albatta, 10 dan ortiq turdagi tangalarda sug'diy yozuv va turkiy unvonlarning uchrashi shunchaki tasodif bo'lmasa kerak. Ushbu tangalarning ko'pchiligi bugungi O'zbekistonning janubiy hududlaridan, bir vaqtlar "To'xoriston" yoki "Shimoliy To'xoriston" deb bilingan tarixiy o'lkaning bir qismi bo'lmish bugungi Surxondaryo viloyati va uning atrof hududlaridan topilayotgani ularning aynan qayerlarda muomalada bo'lganidan darak beradi. Biroq tangalarda uchraydigan hukmdor tasvirlari va

ramziy belgilar ilk o'rta asrlarda Yaqin Sharqda yirik siyosiy kuch sifatida bilingan Sosoniylar Eroniga tegishli bo'lsa-yu, tangalar ustidagi bosma yozuvlar orfografik jihatdan islomdan oldingi davrlarda Amudaryo – Sirdaryo oralig'idagi voha davlatlaridan biri bo'lmish Sug'd konfederatsiyasi, Choch va Farg'ona tangalaridagi sug'diy yozuvlar bilan deyarli bir bo'lsa, bu holatni qanday ochiqlash mumkin? Ustiga-ustak, ushbu tangalardagi unvon ("xoqon", "tegin", "tarxon") va tamg'alar (𐰽, 𐰺, 𐰾, 𐰸) qadimgi turklar bilan, ayniqsa, G'arbiy Turk xoqonligi bilan bog'liq bo'lib chiqsa! Bundan tashqari, To'xoristonning markaziy boshqaruvi (Yabg'ular sulolasi) va o'lkaning boshqa bir qator hukmdorliklar (Chag'oniyon, Termiz, Vaxsh va b.) tangalaridagi tamg'alarining Choch vohasida bostirilgan tamg'alar bilan deyarli bir ekanining negizida nima yotadi? Bu kabi o'xshashliklar aynan qanday tarixiy voqeliklar bilan bog'liq? Shuningdek, sug'diy yozuvli ayrim tangalarda 𐰽 ko'rinishidagi Eftalitlar tamg'asi uchrashi borasida nima deyish mumkin? (*qar.* 26-tanga).

Bu kabi masalalarga chuqurroq to'xtalishdan oldin To'xoriston tangalari bo'yicha mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan tanishib chiqsak. Sug'd tarixi bilimdoni B.Marshakning fikricha, "To'xoristonda Sosoniy tipli tangalarning ustiga sug'diy yozuv zarb qilish an'anasi bu yerda Turk xoqonligi hokimiyati o'rnatilgan paytda amalga oshirilgan. Bundan avval Eftalitlar davrida To'xoristonda rasmiy yozuvlar faqat baqtriy yozuvida olib borilar edi. Turk xoqonligi davrida esa o'lkaning boshida To'xoriston yabg'ulari turgan paytda VII asrda sug'diycha "To'xoriy" (ya'ni, "To'xoristonga oid") iborasi yozila boshlagan [Marşak 2002, 174; Zeymal 1994, 245-267; Zeymal 1995, 122-127]. Turk xoqonligi o'lkani (To'xoriston)ni qo'l ostiga olgach, sosoniy tangalarining muomalada bo'lishiga ruxsat berib yoki yuqoriroq kursga ega ekanligini tasdiqlab, ular ustiga o'z tamg'alarini bosganlar. Peroz tangalari ustida "tegin" (Turk xoqonligi shahzodasi) va "Deshchi Bag'i" shaklidagi sug'diy jumalari uchraydi. Ba'zan bir tanga sirtida har ikkala unvon birgalikda keladi. Deshchi Turk xoqonligiga xizmat qilgan sug'd amaldorlariga berilgan ism bo'lishi mumkin" [Marşak 2002, 174].

B. Marshakning ushbu qarashlariga qo'shilgan holda shunga urg'u berib o'tish kerakki, Peroz va boshqa Sosoniy hukmdorlari tasvirli kontramark (bosma yozuv)li tangalar asosan Eftalitlar (420-565) va Turk xoqonligi (552-744) davrida To'xoriston va unga qo'shni hududlardagi tarixiy shahar xarobalarida uchraydi [Мысакеева, Бердимуратов 2018, 137-144]. Bosma yozuvlarning muayyan

bir qismi baqtriy yozuvida, sezilarli bir qismi esa sug'diy yozuvda bo'lib, asosan, "xoqon", "tegin" va "tarxon" kabi unvonlardan iborat. Shu o'rinda savol tug'iladi, "ushbu unvonlar ham Eftalitlar davlatida, ham Turk xoqonligida qo'llanilgan, shu bois mazkur tangalarda bosma yozuvlarning o'rin olishi aynan qaysi saltanat bilan bog'liq bo'lishi mumkin?" Yuqorida keltirib o'tganimizdek, B. Marshakning To'xoristondagi Sosoniy tipli tangalar ustiga sug'diy yozuv zarb qilish an'anasi bu yerda Turk xoqonligi hokimiyati o'rnatilgan paytda amalga oshirilgani, bundan oldin Eftalitlar davrida esa To'xoristonda rasmiy yozuvlar faqat baqtriy yozuvida olib borilganligi borasidagi fikrida jon bordek ko'rinadi. Shunga qaramay, Eftalitlarning sug'diy yozuvdan foydalanganmi-yo'qmi, masalasi haligacha to'la-qonli yechilmaganini e'tirof etgan holda Turk xoqonligi ushbu yozuvdan ancha keng foydalangani, buni xoqonlikning markaziy hududlari bo'lmish O'rxun (Mo'g'uliston) va Yettisuv (Janubi-Sharqiy Qozog'iston – Markaziy Qirg'iziston) hamda xoqonlik bilan bog'liq turkiy sulolalar tomonidan boshqarilgan Choch, Farg'ona va O'tror (Sirdaryoning o'rta oqimi)dagi turkiy unvonli sug'diycha yozuvli tangalar va turli epigrafik topilmalar tasdiqlashini aytib o'tishimiz zarur [Kljaštornyj, Livšic 1972, 69-102; Lurje 2010; Бабаяров, Кубатин 2009, 80-83].

Markaziy Osiyo va unga qo'shni hududlardagi turli tillarda so'zlashuvchi o'nlab o'lkalarni o'z ichiga olgan Turk xoqonligi (552-744) siyosiy jihatdan eng kuchaygan davrida Uzoq sharqdan to Qora dengizning shimoligacha, Ural tog'laridan Shimoliy Hindiston va Xurosongacha cho'zilgan ulkan hududga egalik qilib, ish yuritish va yozishmalarda asosan qadimgi turk-run va sug'diy yozuvdan foydalangan. Bug'ut (Mo'g'uliston – 581 y.), Ili (Sharqiy Turkiston – 599 y.) bitiktoshlari, Choch/Toshkent vohasida bostirilgan G'arbiy Turk xoqonligi tangalaridagi *зрyw* "jabg'u", *спyw x'γ'n* "jabg'u-xoqon" va *x'γ'n* "xoqon", *twrk x'γ'n* "Turk-xoqon" unvonlari hamda 2 ta xoqon – *trδw x'γ'n* "Tardu xoqon" (576 - 603) va *twn cryw x'γ'n* "Tun yabg'u-xoqon" (618-630) ismlarining o'rin olganligi (*qar.* 1-rasm. 1-4) [Бабаяров, Кубатин 2005, 98-102; Бабаяров 2007, 7], ayrim To'xoriston tangalarida sug'diy iboralar uchrashi xoqonlikda sug'diy tilning asosiy rasmiy tillardan biri bo'lganini ko'rsatadi [Бапатов, Лившиц 2002, 21-23]. Sug'diy yozuv nafaqat Turk xoqonligining oliy hukmdorlari tomonidan tanga bostirishda qo'llanilgan, balki Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga tutash hududlardagi voha hukmdorliklarida xoqonlik bilan bog'liq turkiy sulolalar ham o'z tangalarini ushbu yozuv bilan bostirganlar. Choch teginlari (605-

750) va Choch tudunlari (640-750) tangalarida *tk'yn* "tegin", *tδwn* "tudun", Farg'onaning Ashina xonadoni tangalarida *x'γ'n* "xoqon" va O'tror tutuqlari (VII–VIII asrlar) tangalaridagi *δpw twtwx x'γ'n* "Alp xoqon tutuq" unvonli tangalarning sug'diy yozuvda ekanligi buni aniq ko'rsatib turibdi (1-rasm. 5-9, 13-15) [Смирнова 1981, 341, 391-393; Бабаяров 2005, 198; Ртваледзе 2006, 58, 78-86; Бабаяров 2007, 40-52; Бабаяров, Кубатин 2014, 98-100].

Kezi kelganda aytib o'tish kerak, *δšcy βγy* yoki *δysu βγy* shaklida yozilgan bosma yozuvdagi birinchi so'zni bir qator tadqiqotchilar qadimgi sharqiy eroniy xalqlarda biror iloha sifatida bilingan "Desi" yoki "Tish" bilan aloqador sanasalar, bir qator izlanuvchilar esa uni qadimgi turkiy "idishchi" (oftobachi) unvoni bilan bog'laydilar. Bizningcha, birinchi qarash nisbatan to'g'riroq bo'lib, ilk o'rta asrlarda bunday nomdagi iloha haqidagi tasavvur Sug'd va To'xoriston aholisi orasida nisbatan ko'proq tarqalgan edi. Aslida *δšcy* so'zini qadimgi turkcha "idishchi" bilan tenglashtirish mantiqliroq ko'rinsa-da, Turk xoqonligi davrida muayyan bir unvon sifatida bunday unvon uchramasligi bu fikrga shubha bilan qarashni talab qiladi [Кубатин 2014, 91-95, 188]. Agar "ehtimol, xoqonlik unvonlar tizimida aynan shunday unvon bo'lgan-u, bir qator unvonlar kabi u o'z davri yozma manbalarida aks etmay qolgandir", degan savol tug'ilgan taqdirda ham, mavqe bo'yicha xoqonlik boshqaruvida ancha quyida turishi kerak bo'lgan bunday unvonga o'sha chog'larda ko'pincha yuksak maqomdagi amaldor – xoqonga nisbatan qo'llanilgan *βγy* "ilohiy, janob" epiteti qo'shilib kelganini qanday ochiqlasa bo'ladi?

Shu o'rinda ushbu epitetning asosan Chochda zarb qilingan G'arbiy Turk xoqonligi tangalarida oliy unvon – xoqon (*βγy twwn x'γ'n* "Ilohiy Tun (tung'ich) xoqon") va hukmdor ismi (*βγy twn cpyw x'γ'n* "Ilohiy Tun jabg'u-xoqon") oldida uchrashi, xoqonlikka bilvosita aloqador Choch Teginlari (605-750) va Choch Tudunlari (640-750) tangalarida esa "tegin" va "tudun" unvonlari oldida umuman o'rin olmaganini aytib o'tish kerak (*qar.* 1-rasm. 4-6). Bu holat To'xoristondagi bosma yozuvli tangalarda ham ko'zga tashlanib, yuqorida keltirilgan 3-4-tangalarda *βγy x'γ'n* "ilohiy/janob xoqon" va *δšcy βγy* "ilohiy Desi / Tish" iboralarining uchrashi, ular bilan bitta tangada o'rin olgan "tegin" unvoni esa buning aksi ko'zga tashlanishida ham o'z ifodasiga ega. Demak, xoqonlikda yuqori mavqega ega *tegin* "shahzoda"lar va *tudun* "dorug'a, noib"lar ushbu epitetni o'z unvonlariga qo'shib ishlata olmagan bir paytda qandaydir bir amaldor – "idishchi"ning undan foydalangani va uni tangalar-

da aks ettirganini, hatto xoqonlar kabi o'z unvonlari oldiga "ilohiy" sifatini qo'shib ishlatishga jur'at etgan, deb ochiqlab bo'lmaydi. Aksincha, o'sha davr an'analari ko'ra iloh va ilohalarning nomlari tangalarda aks ettirilar edi (*mas.* Sug'd tangalarida *nn / nny* "Nana") [Смирнова 1981, 48-49, 233-255].

Ko'proq Xitoy yilnomalaridan, qisman esa boshqa (vizantiya, arab, fors) manbalaridan ayon bo'lishicha, Turk xoqonligi 560-yillarda esa Amudaryo-Sirdaryo oralig'idagi To'xoristongacha bo'lgan voqea hukmdorliklarni (Choch, Farg'ona, Ustrushona, Sug'd, Buxoro, Xorazm), 580-yillarda esa To'xoriston, Kobuliston va Xurosonning katta bir qismidagi voqea hukmdorliklarini qo'l ostiga oladi [Бичурин 1950 (I), 229; Симокатта 2005, 624]. Arab tarixchisi Dinovariy esa Sosoniylar va xoqonlik Haytal (Eftalit)lar davlatini tor-mor qilib, unga tegishli hududlarni o'zaro taqsimlashgani, turklar Choch, Farg'ona, Sug'd va Buxoroni qo'lga kiritgani, Sosoniylar esa To'xoriston (Chag'oniyon va h.k.) hamda Kobulistonni o'ziga olganini qayd etadi [Chavannes 1903, 229; Shaban 1971, 482483]. Shuningdek, Xitoy yilnomalarida Turk xoqonligi 580-yillarda Sug'dga *tegin* tayinlangani, To'xoristonga bir *tegin* yuborilib, unga tutash hududlar ham u orqali nazoratga olingani tilga olinadi [Tasagil 1995, 88]. 580-yillarida To'xoriston Turk xoqonligi tarkibiga kiritilgan bo'lsa-da, oradan qariyb 40 yilcha vaqt o'tgachgina bu yerda xoqonlikka to'g'ridan-to'g'ri bog'liq sulola tashkil topadi. Xitoycha yozma manbalar (asosan, yilnomalar va Syuan Tszan sayohatnomasi)dan ma'lum bo'lishicha, 620-yillarda To'xoristonni xoqonlik nomidan boshqarayotgan Ashina xonadoni vakili "yabg'u" unvoniga ega bo'lib, boshqa xitoy yilnomalarida esa o'lkani shu yillardan boshlab 750-yillargacha boshqargan 10 ga yaqin hukmdor "yabg'u" unvonida tilga olinadi. Bundan ko'rinadiki, 620-yillardan to 750-yillargacha bo'lgan 130 yil davomida To'xoristonda Ashina xonadonining bir tarmog'i bo'lmish turk yabg'ulari hukm surgan.

630-yillarda xoqonlik hududlaridan o'tgan Xitoy rohibi Syuan Tszan *Tu-xo-lo* (To'xoriston) o'lkasining 27 ta katta-kichik hukmdorliklardan tashkil topgani, ulardan har birining ayri-ayri o'z boshqaruvchisi borligi, shu bilan birgalikda, ularning barchasi To'xoriston yabg'usiga bo'ysunishiga urg'u beradi. Uning yozishicha, bu paytda To'xoriston yabg'usi *Datu she* (Tardu-shad) bo'lib, u G'arbiy Turk hukmdori Yabg'u-xoqon (ya'ni Tun yabg'u-xoqon) ning o'g'li edi. U o'zini "To'xor yabg'usi" deb atab olgani to'g'risidagi ma'lumot Syuan Szan sayohatnomasining qadimgi turk (uyg'ur)-cha tarjimasida quyidagicha keltiriladi: "toxri yavyu ... m(ä)n tip

ät öz-in /ay/itu (?) söz-lädi" [Тугушева 1991, 68, 202]. Bundan boshqa Xitoy yilnomalarida ham *Tuxolo* (To'xoriston) 27 ta mayda hukmdorlikdan tashkil topgani va ularning barchasi qarorgohi *Xo* (Qunduz)da bo'lgan, kelib chiqishi Ashina xonadoniga mansub *shexu* (turk. *yabg'u*) unvonli hukmdorga bo'ysunishiga urg'u beriladi [Бичурин 1950 (II), 321]. Bu paytda Balx, Termiz, Chag'oniyon, Xuttal, Kumed, Voxon, Shug'on, Qubodiyon, Vaxsh, Shuman, Axarun, Karron, Rub, Samingon, Shuburg'on, Guzugon, Garchiston, Badg'is kabi yarim mustaqil hukmdorliklardan tashkil topgan To'xoristonni turkiy yabg'ular boshqarishi arab manbalarida ham eslatib o'tiladi. To'xoristonning xoqonlik tarkibiga kiritilishi boshqalarga nisbatan biroz keyinroq, 580-yillarda amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu yerdagi nazorat ancha farqli edi. Xususan, siyosiy boshqaruv markazi ancha uzoqda – Yettisuvda bo'lgan xoqonlik uchun To'xoristonda barcha mayda hukmdorliklar boshini biriktirib, ularni itoatda tutib turuvchi, muayyan bir siyosiy uyushmaga ehtiyoji bor edi. Shu tariqa, sobiq Eftalitlarning siyosiy markazlari Qunduz va Balx xoqonlikning tayanch shaharlariga aylanadi va xoqonlar dastlabki yillardan boshlab bu yerda o'z noiblarini joylashtira boshlaydilar.

Demak, 590-yillar atrofida To'xoriston o'lkasi boshqaruviga Tardu xoqon (576–603) *tegin* unvonli o'g'lini yuborishi, 620-yillarda Tun yabg'u-xoqon o'z o'g'li Tardu shadni o'lka boshqaruviga tayinlashi, shu yillardan to 750-yillargacha *Tardu shad* (620?–630), *Tegin-shad* (630–645), *Ishbara yabg'u* (645–650), *Ashina Uchjebo* (653–660), *Kun Ishbara yabg'u* (670–680 (?)), *Nadunili* (700–720), *Qutlug' Tun Tardu* (720–730), *Sulayman Qora* (xit. Shiliman Gyalo (750) kabi Ashina sulolasi boshqaruvda bo'lganligi bu yerda o'z izini qoldirgan [Бичурин 1950 (II), 321–322; Chavannes 1903, 155–158; Harmatta, Litvinsky 1996, 373; Ekrem 2003, 138–139]. Bu vaqtda bevosita Ashina xonadoniga taqaluvchi sulolalar tomonidan boshqarilgan Choch va Farg'onadan farqli o'laroq To'xoriston hukmdorlarining *yabg'u* unvoni bilan hukm yuritishlari xoqonlik uchun bu yer alohida ahamiyatga ega bo'lganidan darak beradi. To'xoristondagi mavjud kichik hukmdorliklarning ko'pchiligida xoqonlik bilan bog'liq sulolalarning vujudga kelishi ham shu bilan bog'liq bo'lsa kerak. Xususan, Termiz, Chag'oniyon, Balx, Badg'is, Xuttal, Voxon, Vaxsh, Shuman, Axarun, Kumed, Qubodiyon va h.k. lar boshqaruvida turkiy sulolalar turgan [Гафуров 1972, 227; Гоибов 1989, 30–31; Бобоёров 2002, 10–11].

To'xoristonda Ashina sulolasining vakillarining turishi bilan bog'liq bo'lsa kerak, Yettisuvdagi xoqonlardan bir qanchasi o'zaro

taxt talashuvlarda yengilgach, ushbu o'lkaga sig'inishgan yoki bu yerni o'z ta'sir doirasiga olishga uringanlar. Masalan, Tun yabg'uxoqonning o'g'li Sir yabg'uxoqon (631-633), Yuquq Duluxoqon (638-642), Elbi Ishbara Yabg'uxoqon (641-642) va Qapg'on xoqon (691-716) kabi bosh hukmdorlarning To'xoristonga intilganliklari yozma manbalarda o'z aksini topgan [Бичурин 1950 (I), 284-285, 287; Taşağıl 1999, 64].

To'xoristonda, aniqrog'i uning ajralmas bir bo'lagi bo'lmish Shimoliy To'xoriston – Chag'oniyon va uning yaqinidagi o'lkalar – Termiz va boshqalarida VII–VIII asrlarda bostirilgan sug'diy yozuvli tangalarda qadimgi turk va sug'diy unvonlar o'rin olishi Turk xoqonligi faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Shuningdek, Shimoliy To'xoristonning tarixiy Sug'd o'lkasiga qo'shni bo'lishi, ayniqsa, uning Kesh va Naxshab kabi Janubiy Sug'd bilan yaqin qo'shnichiligi bu yerda sug'diy tilning yoyilishida o'ziga xos ko'priki bo'lgan. Bizningcha, sug'diy tilning xoqonlik davrida Markaziy Osiyo hududi bo'ylab yoyilishi, va bir necha hukmdorliklarda rasmiy til vazifasini bajarganligi, shuningdek, Turk xoqonligi savdo-sotiq va iqtisodiy hayotida Sug'd ma'muriyatining muhim o'rin tutganligi bunga turtki bo'lgan. Sug'diy yozuv va til asosan turk-run yozuvi hukmron bo'lgan Mo'g'uliston va Yettisuvdan tashqari, Sirdaryoning o'rta havzalari, Farg'ona va Shimoliy To'xoriston hududlarida keng yoyilishi Turk xoqonligi davriga to'g'ri kelishi ham bu qarashimizni kuchaytiradi.

Sug'diy til va yozuvning asosiy aholisi sug'dliklar bo'lmagan hududlarda ham keng tarqalgani ushbu tilning xoqonlikning asosiy tili vazifasini bajarib, Marvdan to Shimoliy Xitoy va Mo'g'ulistongacha hududlarda *lingua franca* vazifasini ham o'taganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Kushon podsholigi davridayoq yunon alifbosi asosidagi sharqiy eroniy tillardan biri – baqtriycha til va yozuvdan ma'muriy til sifatida foydalanilgan To'xoriston hududida sug'diy yozuvning tarqalishi ushbu hududlarning xoqonlik hududiga qo'shib olinishi [Гафуров 1972, 127-129; Гоибов 1989, 25, 30-31] bilan bog'liq edi.

Xulosa

So'g'diy yozuvli To'xoriston tangalarining sezilarli bir qismi to'g'ridan-to'g'ri G'arbiy Turk xoqonligi (568-740), kichik bir qismi esa Turgash xoqonligi (699-766) bilan bog'liq. Shuningdek, bu turkumdagi tangalarning ko'pchilik qismi To'xoristondagi xoqonlik bilan bog'liq turkiy va g'ayriturkiy sulolalarga tegishlidir. Sosoniy tangalaridagi "xoqon" unvoni bosilganlari G'arbiy turk va

Turgash xoqonliklariga tegishli tangalar bo'lsa, "xoqon" va "tegin" unvonlari birga uchraydiganlari esa To'xoristondagi xoqonlikning ilk boshqaruvchilari (580-620-yillar) va kelib chiqishi Ashina xonadoniga taqaluvchi To'xoriston Yabg'ulari (620-750-yillar) bilan bog'lansa kerak. Shuningdek, ayrimlarida  ko'rinishidagi tamg'a, ayrimlarida esa "xoqon" unvoni uchraydigan To'xoriston tangalarini bu yerdagi Yabg'ular sulolasi bilan bog'lash o'rinlidir. Demak, kelib chiqishi G'arbiy Turk xoqonligiga borib taqaladigan To'xoriston Yabg'ulari "Ashina tamg'asi" deb atasa bo'ladigan ushbu tamg'ani o'z tangalariga qo'ygan bo'lib chiqadi. Shu o'rinda ular o'z tangalarini bostirar ekan, G'arbiy turk xoqonlarining bosh unvonini aks ettirganlar yoki bo'lmasa ular nomidan tanga bostirganlar, ayrim hollarda esa biror unvonga emas, birgina tamg'a ()ga o'rin berish bilan cheklanganlar, deb ayta olamiz. Bundan tashqari, ayrimlari yolg'iz "tegin" unvoni, ayrimlari esa "tegin" va "tarxon" unvonlari bilan birga bostirilgan tangalarni xoqonlikning To'xoristondagi ilk boshqaruvchilari (teginlar) va ularning yordamchilari (tarxonlar) faoliyati bilan bog'lash o'rinlidir.

To'xoristonning sug'diy yozuvli turkiy unvon va tamg'alar bilan bostirilgan qolgan tangalarini Chag'oniya, Termiz, Vaxsh, Qo'bodiyon va boshqalarining boshqaruvchilari bilan bog'lar ekanmiz, bu tangalarning ham Choch, Farg'ona va Sug'd (Panch)da bostirilgan eski turk tangalaridagi tamg'alarga yaqin o'xshashlikka egaligi, ham xitoy, arab va fors tilidagi manbalarda ulardan ko'pchiligining boshqaruvida turkiy sulolalar turganligiga doir ma'lumotlar uchrashiga tayanmoqdamiz. Demak, boshlang'ichda Oltoy tog'lari va O'rxun (Mo'g'uliston) tekisliklarida o'z davlatini qurgan va yillar o'tgan sayin Sharqiy Turkiston, Amudaryo – Sirdaryo oralig'i, Xuroson va Shimoliy Hindiston kabi o'troq o'lkalarda o'z boshqaruvini o'rnatgan Turk xoqonligi o'zidan oldingi ko'chmanchi negizli bir necha davlat uyushmalaridan farqli o'laroq tanga bostirishni yo'lga qo'ygan, buni amalga oshirar ekan, o'z milliy yozuvi – qadimgi turk-run yozuvidan tashqari sug'diy, baqtriy, hind va pahlaviy yozuvlari bilan tanishishga ulgurgan. Ayniqsa, sug'diy yozuv va til xoqonlikda rasmiy maqomga ega bo'lganligi buni ko'rsatib turibdi. Yuqorida qisqacha tanishib chiqilgan To'xoristonning sug'diy yozuvli turkiy tangalari ham buni ko'rsatib turibdi.

Adabiyotlar

Бабаяров, Г. 2007. *Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI – VIII вв. н.э.)*. Ташкент: Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои.

- Бабаяров, Г. 2014. «Монеты Отрара с изображением парного портрета». *Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари*: конференция материаллари, 70-75. Тошкент.
- Бабаяров, Г., Кубатин, А. 2010. «Тамги как источник по истории взаимоотношений Чача и Тохаристана в раннем средневековье (на основе нумизматического материала)». *Kitobda O'zbekiston tarixi*, 1. 313. Ташкент.
- Бабаяров, Г. 2019. «Тамги на монетах оазисов Средней Азии эпохи раннего средневековья». *Тамги доисламской Центральной Азии – Tamgas of Pre-Islamic Central Asia*, 133-163. Самарқанд: МИЦАИ (Межд. Инст. Центральноазиат. Исслед. ЮНЕСКО).
- Баратова, Л.С. 2005. «Византийско-согдийско-тюркский симбиоз на монетах Средней Азии». *Second International Congress on Turkic Civilization*, 415-422. Bishkek, October 4-6.
- Баратова, Л.С., Лившиц, В.А. 2002. «О согдийских надчеканах на Сасанидских монетах и подражаниях им». В книге *Культурное наследие Средней Азии*, 21–26. Ташкент.
- Бичурин, Н.Я. (Иакинф). 1950-1953. *Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена*. В 3-х томах. М.- Л. Том I. 383 с.; Том II. 335 с.; Том III. 327 с.
- Бобоёров, Ф. 2002. «Турк хоқонлиги даврида Тохаристон». *Мозийдан садо* 4: 10-11.
- Бобоёров, Ф. 2003. «Тохаристон ябғулар тарихига доир». *O'zbekiston tarixi* 3: 3-10. Тошкент.
- Babayar, G. 2007. *Köktürk Kağanlığı sikkeleri Katalogu – The Catalogue of coins of Turkic Qaghanate*. Ankara: TİKA.
- Babayar, G. 2008. «Fergane bölgesinde bulunan Türk-Runik yazılı Köktürk sikkeleri üzerine». *Dünden Bugüne İpek Yolu: Beklentiler ve Gerçekler*, 135-146. İstanbul.
- Babayarov, G. 2017. «On the Relations between the Rulers of Chach and Tokharistan in the Pre-Islamic Period». *Archivum Eurasiae Medii Aevi* 23: 5-20. Harrasowitz Verlag, Wiesbaden.
- Babayarov, G., Kubatin, A. 2013. «Byzantine impact on the iconography of Western Turkic coinage». *Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hung* 66 (1): 47–58. Budapest.
- Джуманиязова, Ф. 2018. *Илк ўрта асрларда Тохаристон ва Кобул водийсида туркий сулолалар*. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент.
- Ekrem, E. 2003. *Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne göre Türkistan*. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi. Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara.
- Esin E. 1972. «Kün-Ay (Ay Yıldız Motifinin proto-Türk Devrinden Karahanlılara Kadar İkonografisi)». VII. *TTK Bildirileri* I: 313-359. Ankara.
- Феофилакт Симокатта. 2005. «История». *Великая степь в античных и византийских источниках*, 583–639. Сборник материалов. Сост. и ред. А. Н. Гаркавца. Алматы: Баур.
- Гафуров, Б. Г. 1972. *Таджики, древнейшая, древняя и средневековая*

- история. Москва.
- Гоибов, Г. 1989. *Ранние походы арабов в Среднюю Азию*. Душанбе: Дониш.
- Гумилев, Л. Н. 1967. *Древние тюрки*. Москва: Наука.
- Grenet, F., Vaissiere, E. 2002. "The last days of Panjikent". *Silk Road Art and Archaeology* 8: 155–196. Kamakura.
- Göbl, R. 1967. *Dokumente zur Geschichte der Iranischen Hunnen in Baktrien und Indien*. Band I. Wiesbaden.
- Harmatta, J., Litvinsky, B. A. 1996. "Toharistan and Gandhara under Western Turk rule". *History of Civilizations of Central Asia* 3: 367–401. Paris.
- Кляшторный, С. Г. 1985. «Генеалогия и хронология западнотюркских и тюркешских каганов VI – VIII век». Из истории дореволюционного Киргизистана, 165–168. Фрунзе, Илим.
- Kljaštornyj, S. G., Livšic, V. A. 1972. *The Sogdian Inscription of Bugut revised* // AOASH. Budapest, Tom. XXVI (1): 69–102.
- Lurje, P. 2010. *Personal names in Sogdian texts in Iranisches Personennamenbuch* 2. Mitteliranische Personennamen 8. Wien: Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften.
- Лившиц, В.А. 1979. «Правители Панча (Согдийцы и тюрки)». Народы Азии и Африки, 4: 56–69. Москва.
- Marşak, B. I. 2002. "Türkler ve Soğdlular". *Türkler* 2: 170–178. Ankara.
- Мусакаева, А. А., Бердимуратов, А.Э. 2018. «Клад из Сазагана». *Археологические исследования в Узбекистане 2015-2017 года*. Вып. 11: 137–144. Самарканд.
- Ртвеладзе, Э. В. 1987. *Древние монеты Средней Азии – Ўрта Осиёнинг қадимий тангалари*. Ташкент.
- Ртвеладзе, Э. 2006. *История и нумизматика Чача (вторая половина III – середина VIII в. н.э.)*. Ташкент.
- Смирнова, О. И. 1981. *Сводный каталог согдийских монет*. Бронза. Москва.
- Skaff, K. J. 2002. "Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries". *Turks* 2: 364–372. Ankara.
- Stark, S. 2008. *Die Alttürkenzeit in Mittel- und Zentralasien. Archäologische und historische Studien*. Wiesbaden.
- Таşağıl, A. 1999. *Gök-Türkler*. II. Ankara: TTK.
- Таşağıl, A. 2003. *Gök-Türkler*. I, 2. Baskı. Ankara: TTK.
- Тугушева, Л. Ю. 1991. *Уйгурская версия биографии Сюань-Цзана*. Москва.
- <http://www.zeno.ru> – Pre-Islamic Central Asia, Northern Tokharistan.
- Zeymal', E.V. 1994. "The Circulation of Coins in Central Asia during the Early Medieval period (Fifth-Eighth Centuries A.D.)". *Bulleten of the Asia Institute* 8: 245–267. Bloomfield hills.
- Зеймаль, Е.В. 1995. "Серебрянные драхмы сасанидского образца в Северном Тохаристане (5-8 вв.)". *Эрмитажные чтения 1986-1994 годов памяти В.Г. Луколина*, 122–127. Санкт-Петербург.
- Shaban, M.A. 1971. "Khurasan at the Time of Arab Conquest". *Iran and Islam. In memory of the Late Vladimir Minorsky*, 480–490. Edinburg.

Chavannes, E. 1903. "Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux".
Сборник трудов Орхонской экспедиции, 6. Санкт-Петербург.

Gaybulla Boboyorov

(Tashkent, Uzbekistan)

gaybullah@navoiy-uni.uz

Coins of Ancient Tokharistan

Abstract

The tamga signs images and titles engraved on coins represent symbols of ruling dynasties and the states they had founded and were associated both with the territory in which they ruled and with their origin (ethnicity). In this regard, a particular interest is the caused by Old Turkic tamgas and titles ("Qaghan", "Yabghu", "Tegin", "Tarkhan") available on the Pre-Islamic Turkic coins of Tokharistan region (Southern Uzbekistan – Southern Tadjikistan – Northern Afghanistan) with Sogdian scripts. On the early medieval coins of Chach related to the Western Turkic Qaghanate (568–740), there are four types of tamgas – a lyre-shaped one with its varieties, a tamga in the form of two crossed swords, an anchor-form tamga and the diamond-form one, and the fact comes under notice that similar tamgas were engraved on the coins of the Northern Tokharistan of the same epoch. Appearance of these tamgas and titles on the territory of Chach and Tokharistan in the Early Middle Ages is directly related to political activities of the Western Turkic Qaghanate and ethno-cultural processes which were taking place in Central Asia.

Key words: Central Asia, Transoxiana, Tokharistan, Pre-Islamic period, coins, Turkic Qaghanate, Sogdian script, Old Turkic titles, tamga (stamp) signs, dynasties.

About the author: *Gaybulla B. Boboyorov* – Doctor of Sciences in History, Assistant Professor, Tashkent state University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

For citation: Boboyorov, G. B. 2019. "Coins of Ancient Tokharistan". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 74–100.

References

- Babajarov, G. 2007. *Drevnetjurkskie monety Chachskogo oazisa (VI – VIII vv. n.je.)*. Tashkent: Nacional'noj biblioteki Uzbekistana imeni Alishera Navoi.
- Babajarov, G. 2014. "Monety Otrara s izobrazheniem parnogo portreta".

- Tarihiy manbashunoslik, tarihnavislik, tarih tadqiqoti metodlari va metodologijasining dolzarb masalalari: konferenciya materiallari*, 70-75. Toshkent.
- Babajarov, G., Kubatin, A. 2010. "Tamgi kak istochnik po istorii vzaimootnoshenij Chacha i Toharistana v rannem srednevekov'e (na osnove numizmaticheskogo materiala)". *O'zbekiston tarixi* 1: 313. Tashkent.
- Babajarov, G. 2019. "Tamgi na monetah oazisov Srednej Azii jepohm rannego srednevekov'ja". *Tamgi doislamskoj Central'noj Azii – Tamgas of Pre-Islamic Central Asia*, 133-163. Samarqand: MICAI (Mezhd. Inst. Central'noaziat. Issled. JuNESKO).
- Baratova, L. S. 2005. "Vizantijsko-sogdijsko-tjurkskij simbioz na monetah Srednej Azii". *Second International Congress on Turkic Civilization*, 415-422. Bishkek.
- Baratova, L. S., Livshic, V. A. 2002. "O sogdijskih nadchekanah na Sasanidskix monetah i podrazhanijah im". *Kul'turnoe nasledie Srednej Azii*, 21-26. Tashkent.
- Bichurin, N. J. (Iakinf). 1950-1953. *Sobranie svedenij o narodah, obitavshih v Srednej Azii v drevnie vremena*. V 3-h tomah. M.- L. Tom I. 383 s.; Tom II. 335 s.; Tom III. 327 s.
- Bobojorov, G. 2002. "Turk hoqonligi davrida Tohariston". *Mozijdan sado* 4: 10-11. Toshkent.
- Bobojorov, G. 2003. "Tohariston jabrlari tarihiga doir". *O'zbekiston tarixi* 3: 3-10. Toshkent.
- Babayar, G. 2007. *Köktürk Kağanlığı sikkeleri Katalogu – The Catalogue of coins of Turkic Qaghanate*. Ankara: TİKA.
- Babayar, G. 2008. "Fergane bölgesinde bulunan Türk-Runik yazılı Köktürk sikkeleri üzerine". *Dünden Bugüne İpek Yolu: Beklentiler ve Gerçekler*, 135-146. İstanbul.
- Babayarov, G. 2017. "On the Relations between the Rulers of Chach and Tokharistan in the Pre-Islamic Period". *Archivum Eurasiae Medii Aevi* 23: 5-20. Harrasowitz Verlag, Wiesbaden.
- Babayarov, G., Kubatin, A. 2013. "Byzantine impact on the iconography of Western Turkic coinage". *Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hung* 66 (1): 47-58. Budapest.
- Dzhumanijazova, F. 2018. *Ilk urta asrlarda Tohariston va Kobul vodijsida turkij sulolalar*. Tarih fanlari bujicha falsafa doktori (PhD) dissertacijasida avtoreferati. Toshkent.
- Ekrem, E. 2003. *Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne göre Türkistan*. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. Ankara.
- Esin, E. 1972. "Kün-Ay (Ay Yıldız Motifinin proto-Türk Devrinden Karahanlılara Kadar İkonografisi)". VII. *TTK Bildirileri* I: 313-359. Ankara.
- Feofilakt Simokatta. 2005. "İstoriya". *Velikaja step' v antichnyh i vizantijskix istochnikah*. Sbornik materialov, 583-639. Sost. i red. A. N. Garkavca. Almaty: Baur.
- Gafurov, B. G. 1972. *Tadzhiki, drevnejshaja, drevnjaja i srednevekovaja istoriya*. Moskva.
- Goibov, G. 1989. *Rannie pohody arabov v Srednjuju Aziju*. Dushanbe: Donish.
- Gumilev, L. N. 1967. *Drevnie tjurki*. Moskva: Nauka.
- Grenet, F., Vaissiere, E. 2002. "The last days of Panjikent". *Silk Road Art and*

- Archaeology* 8: 155–196. Kamakura.
- Göbl, R. 1967. *Dokumente zur Geschichte der Iranischen Hunnen in Baktrien und Indien*. Band I. Wiesbaden.
- Harmatta, J., Litvinsky, B.A. 1996. "Toharistan and Gandhara under Western Turk rule". *History of Civilizations of Central Asia* 3: 367-401. Paris.
- Kljashstornyj, S. G. 1985. "Genealogija i hronologija zapadnotjurkskih i tjurgeshskih kaganov VI – VIII vek". *Iz istorii dorevoljucionnogo Kirgizistana*, 165–168. Frunze: Ilim.
- Kljaštornyj, S. G., Livšic V. A. 1972. "The Sogdian Inscription of Bugut reviced". Tom. XXVI (1): 69–102. AOASH. Budapest.
- Lurje, P. 2010. *Personal names in Sogdian texts in Iranisches Personennamenbuch 2. Mitteliranische Personennamen 8*. Wien: Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften.
- Livshic, V. A. 1979. "Praviteli Pancha (Sogdijcy i tjurki)". *Narody Azii i Afriki* 4: 56-69. Moskva.
- Maršak, B. I. 2002. "Türkler ve Soğdlular". *Türkler* 2: 170–178. Ankara.
- Musakaeva, A. A., Berdimuradov, A.J. 2018. "Klad iz Sazagana". *Arxeologicheskije issledovanija v Uzbekistane 2015-2017 goda* 11: 137-144. Samarkand.
- Ptveladze, J. V. 1987. *Drevnie monety Srednej Azii – Urta Osijoning qadimij tangalari*. Tashkent.
- Rtveladze, J. 2006. *Istorija i numizmatika Chacha (vtoraja polovina III - seredina VIII v. n.je.)*. Tashkent.
- Smirnova, O. I. 1981. *Svodnyj katalog sogdijskih monet. Bronza*. Moskva.
- Skaiff, K. J. 2002. "Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries". *Turks* 2: 364–372. Ankara.
- Stark, S. 2008. *Die "Alttürkenzeit in Mittel- und Zentralasien"*. *Archäologische und historische Studien*. Wiesbaden.
- Taşağıl, A. 1999. *Gök-Türkler*. II. Ankara: TTK.
- Taşağıl, A. 2003. *Gök-Türkler*. I, 2. Baskı. Ankara: TTK.
- Tugusheva, L. J. 1991. *Ujgurskaja versija biografii Sjuan'-Czana*. Moskva. <http://www.zeno.ru> – *Pre-Islamic Central Asia, Northern Tokharistan*.
- Zeymal', E. V. 1994. "The Circulation of Coins in Central Asia during the Early Medieval period (Fifth-Eighth Centuries A.D.)". *Bulleten of the Asia Institute* 8: 245-267. Bloomfield hills.
- Zejmal', E.V. 1995. "Serebrjannye drahmy sasanidskogo obrazca v Severnom Toharistane (5-8 vv.)". *Jermitazhnie chtenie 1986-1994 godov pamjati V.G. Lukonina*, 122-127. Sankt-Peterburg.
- Shaban, M. A. 1971. "Khurasan at the Time of Arab Conguest". In: *Iran and Islam. In memory of the Late Vladimir Minorsky*, 480-490. Edinburg.
- Chavannes, E. 1903. "Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux". *Sbornik trudov Orhonskoj jekspedicii*, 6. Sankt-Peterburg.

**SAN'AT
ART**

Oqilxon Ibrohimov

(Toshkent, O'zbekiston)
okilxoni@bk.ru

Alisher Navoiyning samo' falsafasi

Abstrakt

Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy yaratgan badiiy asarlar teran mazmuni va nafis ohangdorligi bilan o'quvchi qalbida katta taassurot uyg'otadi. Zero, mutafakkir qalamiga mansub g'azal va dostonlar musiqaning eng go'zal va latif ko'rinishi bo'lgan samo hikmatlari bilan yo'g'rilgan. Bu hol bejiz emas, albatta. Zotan, diltortar kuy va nafis taronalar Navoiy ijodining ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi. Shu boisdan uning asarlarida botiniy musiqa sadolari "ichki tinglov" ila mudom his qilinadi, qahramonlar tavsifi esa goho benazir sozanda va xonandalar siymosi o'laroq yorqin gavdalanadi. Shuningdek, advor ilmidan yaxshi xabardor Navoiy asarlarida maqom san'atiga oid ko'plab maxsus atama va iboralar bayon etilayotgan voqelikning eng nozik va muhim nuqtalarida namoyon bo'lishi kuzatiladi. Binobarin, Navoiyning ijodiy merosi maqomlar tarixi va falsafiy ta'limotini o'rganishda ham qimmatli manbadir.

Kalit so'zlar: shoir, mutafakkir, kuy, samo', maqom, tarona, risola, advor, mutrib, mug'anniy, chang, rud.

Muallif haqida: *Ibrohimov Oqilxon Akbarovich* – san'atshunoslik fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti.

Iqtibos uchun: Ibrohimov, O. A. 2019. "Alisher Navoiyning samo' falsafasi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 101–113.

Kirish

O'zbek xalqining ulug' shoiri, buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiy musiqa san'atini tasavvuf doirasida idrok va talqin etgani uning nazmiy-ilmiy asarlaridan ma'lum. Jumladan, shoirning ijodida musiqa so'fiyona samo' (yoqimli tovush, nag'ma, ohangni qalban tinglash ila zavqlanish va h.k.) tushunchasining ma'nodoshi yoxud uning muayyan bir ko'rinishi sifatida keng qo'llanganini kuzatamiz.

Bu borada musiqa Haqiqat sir-asrorlarini qalban kashf etish uchun insoniyatga berilgan nodir ne'mat bo'lib, uning yoqimli nag'malarida asl go'zallik jilvalanadi. Binobarin, samo'ning bir ko'rinishi bo'lgan musiqa – inson his-tuyg'ularini chin Go'zallik va Haqiqat asrorlariga yo'naltirish qudratiga ega san'atdir: "Shibliy va Nuriy (quddissa sirrihumo) samo'da kettilar, va bu yo'l suluki bila maqsud sarmanzilig'a yettilar" [Навоий 1998, 30]. Bu o'rinda samo tushunchasi mazmunida go'zal ovoz bilan jilolangan muayyan intizomli tovushlarning yuksaklikka maqsadli intilgan jonli harakat jarayoni va uni qalban zavqli qabul qilish (idroklash) holati angla-shiladi.

Ammo go'zallik olamiga ruhan yuksalishning o'z shartlari ham bor. Shulardan eng muhimi – inson qalbida ishq dardining mavjudligidir. Bejiz emaski, Hazrati Navoiy asarlarining bosh qahramonlari ishq jazbasi ila yuksak maqsad sari intiladilar. Zero, ishq ahli borki, o'z navosi bor. Aslida go'zal ishq tuyg'usining hissiy ifodasi bo'lgan navo (kuy) benihoya latofatli, dilrabo va maftunkor bo'lishi barobarida yana inson ruhiga quvvat bag'ishlovchi ma'naviy ozuqa hamdir. Tabiiyki, bunday sohir ohangli musiqaning ichki mohiyati shunga muvofiq bo'lgan xushnavo soz va yoqimli ovoz ijrochiligi vositasida o'zini mukammal namoyon etadi. Bu esa har bir sozanda va xonanda oldiga qo'yilgan eng muhim estetik talablardan biridir. Zotan, ushbu talablar butkul amalga oshgandagina tinglovchi ruhiy olamida mo'jizaviy holat yuzaga keladi: "Ko'ngul quvvati – xushnavozdin, ruh quti – xushovozdin" [Навоий 1998, 30].

Nafosat olamiga ruhan bog'lanish va shu asnoda ko'zlangan maqsad sarmanziliga yetishish yo'lida mutrib-u mug'anniyarning ham ishq ahlidan bo'lmog'i ayni muddaodir. Shu sababdan jazba dardli mug'anniyning muloyim ovozda kuylashi shikasta ko'ngillarni yondirib yuboradi, mahoratli mutribning yoqimli ovoz birla soz chalishi esa hol ahlining ko'ngil olamiga g'avg'o soladi: "Mutribi tarabafzo, mug'anniyi g'amzudo – ikkalasiga dard-u hol ahli jon qilurlar fido. Ulki ko'rguzgay muloyim tarona-u nag'am, agar eshituvchining hayoti naqdi anga fido bo'lsa ne g'am... Otashin yuzluk mug'anniyki, xilqidin muloyim surud chiqorg'ay, hol ahlining kuygan bag'ridin dud chiqorg'ay. Muloyim mutribki, tab' va fahm anga yor bo'lg'ay, xususanki, ham aytg'ay va cholg'ay, ko'ngul mulkiga ne qo'zg'olonlar solg'ay" [Навоий 1998, 30].

Filhaqiqat, go'zal ruhiy holat ifodasi o'laroq yuzaga kelgan kuylarni har gal sadolarda "jonlantira" olish borasida oshiq qalb sozanda va xonandalar mohiyatan ishq zavq-u shavqidan kelib

chiquvchi "nola" va boshqa ijroviy bezak usullarini samarali qo'llay biladilar. Zotan:

*Qaysi qush, bulbulki ming dastoni bor,
Har bir ul dastonda bir afg'oni bor.
Lek ul dostonlari gul shavqidin,
Nola-u afg'onlari gul shavqidin* [Навоий 1966, 21].

Navoiyning teran bu kuzatuvlarini Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye" asarida keltirilgan quyidagi rivoyat ham quvvatlaydi: "Hazrati Dovud payg'ambardan keyin hech kim Hofiz Basirdek xonandalik qilolmas ekan. Shunisi ham mashhurki, uning xonandalik majlisida to'rt kishi hushidan ketgan ekan. Naql qilishlaricha, Hoja Tovus Devonning ta'ziyasi kuni e'tiborli va mansabdor kishilar Hofiz Basirdan ashula aytishni iltimos qilganlar. Hofiz Hoju Kirmoniyning "Vafoti beh buvad onro, ki dar vafoi tu navbat" ("Senga vafo qilmaganlarning o'lgani behroq") deb boshlanadigan g'azalini boshlab quyidagi baytga yetgan:

*Dar otash afkanam on dil, ki dar g'ami tu naso'zad,
Ba bod bardiham on jon, ki dar havo'i tu navbat...*

(G'amingda kuymagan dilni o'tga tashlayman. Sen uchun yonmagan jonning kulini ko'kka sovuraman). Ayvon kunjidan bir musicha parvoz qilib, o'zini hofizning qo'yniga tashlagan va jon bergan. O'sha kuni qariyb qirq kishi hushidan ketgan. Ularni majlisdan ko'tarib olib chiqishgan" [Восифий 1979, 10-11].

Musiqa (kuy, ashula), agar ko'zlangan yuksak maqsad sari to'g'ri yo'nalgan bo'lsa, ruhiy ibodat yanglig' muqaddasdir. Bu o'rinda ham musiqa ijrochilarining ichki olami, ma'naviy yetukligi va asl niyati muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, "Lison ut-tayr" falsafiy dostonida shunday misralarni o'qiymiz:

*Abdulla Ansoriy dedi,
Ulki, yo'l ahlig'a hodiy edi.
"Kim kishi soz aylabon ohangi rud,
Tuzsa ul ohang aro lahni surud,
Lek bu rudu surudidin murod,
Bo'lsa Tengri yodi, ey pok e'tiqod,
Yaxshiroqkim g'aflat ohangin tuzub,
O'qug'oy mushaf tilovat ko'rguzub.
Bo'lsa lahnu nag'mada ogohlig',*

